

T SUOS TOURISM



I-SON

E-JOURNAL

MAY, 2023



**CHUST
BOYSU
RISHTO
YANGIQO'RG'O** **N**

MUNDARIJA

Turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.....	3
TDSHuda turizmni rivojlantirish borasida bir qator anglashuv memorandumlari imzolandi.....	6
Chust tumani xaritasi.....	8
Rishton tumani xaritasi.....	9
Boysun tumani xaritasi.....	10
Yangiyo'rg'on tumani xaritasi.....	11
Chust	
Chust tumaniga yasalgan logo.....	12
Chust - azizlar yurti.....	13
Mavlono Lutfulloh Chustiy.....	14
Chustning markaziy bog'i.....	15
Chust oshini yeganmisiz?.....	16
"Rezaksoy suv ombori".....	17
Xo'ja Abdurahmon ibn Avf.....	18
G'ova.....	19
Chust - ko'hna vodiy yuragi.....	20
Chust tumani turizm salohiyati: muammo va yechimlar.....	21
"Ko'k to'li ota" ziyoratgohi.....	23
Chustlik Sobirxon aka.....	24
"Bibi ona" ziyoratgohi.....	26
Otchopar Eshon.....	27
Chust takiya.....	28
Chust - hunarmandlar yurti.....	29
Namanganning mehmoni.....	31
Rishton	
Rishton tumaniga yasalgan logo.....	32
Rishton xalqaro kulolchilik markazi - hunarmandlarning ming yillik orzusi.....	33
Rishton brendga aylana oldi(mi?).....	34
Rishtonlik qahramon Mamadali Topvoldiyev uy muzeyi.....	38
Rishton xalqaro kulolchilik markazi.....	41
Alisher Nazirov ustaxonasi va uy muzeyi.....	42
Tohirjon Xaydarov ustaxonasi va uy muzeyi.....	43
Usta kulol Sharofiddin Yusupov.....	44
Turk dunyosi nigohi Rishtonda.....	48
Straus farm.....	49
Boysun	
"Bibishirin" ziyoratgohi.....	52
"Xo'ja Qo'chqor ota" ziyoratgohi.....	54
Niyat bulog'i.....	56
Magnit maydoni.....	57
Padang qishlog'i dam olish maskanlari.....	58
Feruza opa hunarmandchilik markazi.....	60
"Kamari aziz" ziyoratgohi.....	61
"Xo'jamayxona" ziyoratgohi.....	62
"Teshiktosh" g'ori.....	64
"Qo'rg'onzo'l" qal'asi.....	65
Boysun hunarmandchilik markazi.....	66
Sayrob chinorlari.....	67
Uzundara.....	69
Omonxona turistlarni jalb qiluvchi go'zal maskandir.....	71
Yangiyo'rg'on	
Yangiyo'rg'on.....	74
Nanay qishlog'i tarixi.....	75
"Paradise" dam olish maskani.....	76
"Aqtam ota" yodgorlik majmuasi.....	77
"Abdulloh bir urug'" ziyoratgohi.....	78
"Diyor" dam olish maskani.....	79
"Qorapolvon buva" ziyoratgohi.....	80
Boboi Handon jome masjidi.....	81
Zarkent qishlog'i.....	82
Namangan taomlari.....	84
Foto esdaliklar.....	85
Tahririyat jamoasi.....	93

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR KO'RSATIB O'TILDI

29.03.2023

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko'p ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022 yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani natijasida u yerga qo'shimcha 2 million sayyoh kelgan.

Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyat bundan ancha yuqori. Yurtimizga kelmoqchi bo'lgan sayyohlar juda ko'p. Lekin, ularni qiziqtiradigan joylar haqida kontent kam, turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar yetishmaydi. Samolyot va poyezdga biletni bir necha oy oldindan sotib olishda noaniqliklar ko'p.



Yig'ilishda soha rivojiga to'siq bo'layotgan shu kabi muammolar tanqidiy tahlil qilinib, muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Uzoq xorijliklar uchun O'zbekistonning darvozasi bu – aeroport. So'nggi yillarda 5 ta yangi xususiy aviakompaniya tashkil qilindi, aviatsiya parkimiz 44 taga yetdi. O'tgan yili Samarqand aeroporti "beshinchi osmon" rejimida ishlashiga o'tgani hisobiga, haftalik aviaqatnovlar soni 46 tadan 78 taga, yo'lovchi oqimi esa 6,5 mingdan 10 mingtaga ko'paydi.

Lekin, ichki reyslar taqchilligi haftasiga Nukus va Urganchga 20 tani, Samarqandga 15 tani, Buxoro va Termizga 11 tani tashkil qilayapti. Shu kabi, temiryo'lda haftasiga 68 ta qo'shimcha qatnovga, 350 ta yangi vagonga talab bor. Qoraqalpog'iston, Jizzax, Namangan va Surxondaryoda sayyohlarga avtobus yetishmaydi.

Shu bois yil yakunigacha yana 20 ta zamonaviy samolyot olib kelib, aviaqatnovlarni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatma berildi. Jami mahalliy reyslar soni 2 baravar oshirilib, 100 taga yetkazilishi, ayrim yo'nalishlar bo'yicha aviachipta xarajatining bir qismiga subsidiya berilishi aytiladi.

Shuningdek, bu yil 8 ta elektr poyezd olib kelinadi. Turoperator, mehmonxona va tashuvchilarga 10 va undan ortiq o'rindiqli avtotransportlar olib kirishda bojxona imtiyozlari beriladi. Qamchiq dovonida mikroavtobus, Jizzax dovoni, Chimyon va Chorvoqda turistik avtobus va mikroavtobuslar qatnoviga ruxsat beriladi.

Turizmدا yana bir muhim omil bu mehmonxona. Bu borada keng imkoniyat yaratilgani hisobiga, so'nggi besh yilda mehmonxona o'rinlari 2 baravar oshib, 60 mingtaga yetgan.

Davlatimiz rahbari xorijiy konsalting kompaniyalarni jalb qilib, mehmonxonalaridagi sharoitlarni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, ular uchun qo'shimcha kredit resurslari ajratish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda turizm dasturlarining mazmuniga ham e'tibor qaratildi. Qayd etilganidek, xorijiy sayyohlarning O'zbekistonda bir kun ko'proq qolishi yillik turizm eksportini 300 million dollarga oshiradi.

Misol uchun, Xorazmga xorijiy turistlar Buxoro va Samarqandga qaraganda 2 baravar kam bormoqda. Lekin, Xorazmda sayyohlarni 3-4 kun olib qolish uchun barcha imkoniyat mavjud.

Yoki o'tgan yili 31 ta tuman va 143 ta mahalla turizmga ixtisoslashtirilib, ularda alohida soliq rejimi joriy qilingan edi. Bu imtiyozlardan 4 mingga yaqin korxonalar foydalanib, tovar aylanmasi 1,5 baravar oshgan.

Sayyohlarni ko'proq vaqt olib qolishda yetishmayotgan narsalar bu qiziqarli dasturlar va targ'ibot. Shu bois, yig'ilishda bu borada ko'maklashishga 11 ta oliy ta'lim muassasasi birlashtirildi. Ular 31 ta tuman va 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumotlar majmuini yaratadi. Ular asosida 12 ta tilda turistik paketlar ishlab chiqiladi. Turizm va servis obyektlari ishchilari o'qitiladi.

Mutasaddilarga mehmonxona, madaniyat, tabiat, etno va gastronomik markazlarni bog'laydigan turizm klasterlari tashkil etish, "turistlar uchun mehmondo'st muhit sertifikatini"ni joriy qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yurtimizda turizm dasturlari asosan aprel-may va sentyabr-oktyabr oylariga moslashgan. Lekin bu mavsumni uzaytirish uchun yetarli imkoniyat bor.

Masalan, qishda Toshkent va Jizzax viloyatlarida chang'i, boshqa joylarda yozda cho'milish maskanlarini tashkil etib, turistik mavsumga yana ikki oy qo'shish mumkin. Shuningdek, yozda 22 ta qo'riqxonaga, 24 ta milliy tabiat bog'i va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan ham foydalansa bo'ladi.

Shu kabi manbalar asosida, yozgi va qishki mavsumlarga mo'ljallangan loyihalar ishlab chiqish, turistik mavsum bo'lmagan kunlarda sayyohlar uchun qiziqarli festival va madaniyat tadbirlari tashkil qilish vazifasi qo'yildi.

Yana bir masala - mamlakatimizda 8 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari va 122 ta muzey bor. Yoshlar uchun adabiyot, tarix, geografiya, tasviriy san'at kabi fanlarni ushbu maskanlarda tashkil etish maqsadga muvofiqligi aytib o'tildi.

Bu yil yurtimizda Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining yig'ilishi o'tkaziladi. Samarqand 2023 yilda Jahon turizm poytaxti bo'ladi.

Umuman, bu yil 7 million xorijiy va 15 million ichki sayyohlarni jalb qilish, soha eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan vazir va hokimlar, tadbirkorlar o'z fikr va takliflarini bildirdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
matbuot xizmati

TDSHUDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BORASIDA BIR QATOR ANGLASHUV MEMORANDUMLARI IMZOLANDI

07.05.2023



2023-yil 26-aprel sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora tadbir to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarorni imzoladi.



Ushbu qarorda alohida band bilan mamlakatda turizmni rivojlantirishda kadrlar siyosatiga asosiy e'tiborni qaratish hamda oliygohlarda tahsil olayotgan talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uzviy bog'lash, turizm xizmat ko'rsatish sohasida ularni ish bilan ta'minlash, ilmiy tadqiqotlar orqali hududlarning turistik potensialini yuzaga chiqarish muhim vazifa qilib belgilandi.



Shu munosabat bilan, 2023- yil 6-may sanasida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tomonidan Turizm investorlari uyushmasi (Tourism investors' association), shuningdek O'zbek-Xitoy Turizmni rivojlantirish uyushmasi va O'zbek-Hind turizm uyushmasi bilan hamkorlik to'g'risidagi anglashuv memorandumlari imzolandi.




TDSHU o'z o'rnida mazkur hamkorlik doirasida hududlarning turizm salohiyatini o'rganish, hudud va uning tarixi, turistik obyektlari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida turli tillarda kontentlar yaratish, ularni targ'ibot qilish hamda turpaketlar yaratishda yordam ko'rsatish; nazariy bilim va amaliyotning uyg'unligini ta'minlagan holda professor-o'qituvchilarning izlanishlari, talabalarning turizm sohasidagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish; hududlardagi aholi tomonidan turizm xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda kadrlarning malakasini oshirishda ko'maklashish borasida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.





TDSHU turizm amaliyotchilari tomonidan tayyorlangan Chust hunarmandchiligi haqidagi videoni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

Chust tumani xaritasi






Rishton tumanining tarixiy obyektlari haqidagi "Ko'hna manzillar" nomli ko'rsatuvni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

Rishton tumani xaritasi



Boysun tumani xaritasi



“Manzil”
loyihasining
Boysun tumani
haqidagi sonini
ko'rish uchun QR
kodni skaner
qiling.





Yangiyoʻrgʻon tumani xaritasi

"Manzil" loyihasi
ning Nanay
qishlogʻi
haqidagi sonini
koʻrish uchun
QR kodni skaner
qiling.





USHBU LOGODA CHUSTNING O'ZIGA XOS UCHTA
ENG MASHHUR MAHSULOTI BILAN TANISHTIRGANMIZ:

- CHUST DO'PPISI
- CHUST OSHI
- CHUST PICHOG'I

SHAVKAT ABDUG'AFFOROV



Chust o'zining buyuk o'tmishi davomida bu yurtga juda ko'p olim-u, shoirlarni, mutafakkirlarni yetishtirib berdi.

Chust - azizlar yurti

Chustda yashagan, shu yerda faoliyat olib borgan ko'plab ziyolilar Chustiy nomi bilan shuhrat qozongan. Toshkent, Chust, Qo'qon, Namangan shaharlaridagi ko'cha, maktab, kutubxona, kinoteatr va jamoa xo'jaliklari Chustiy nomi bilan atalishi ham bejiz emas, albatta. Quyida shunday insonlardan bir nechtasi haqida so'z yuritmoqchimiz:

Chustiy, asl ismi Nabixon Xo'jayev-o'zbek shoiri. 1904-yil Namangan shahrida tavallud topgan.

Asosiy bilim va adabiy ko'nikmalarni Chust va Qo'qondagi eski maktab va madrasalarda egallagan. XX asr o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. Uni o'zbek adabiyotida "XX asrning Navoiysi" deya atash mumkin. Ijodkor me'rosining asosiy qismini g'azallar tashkil etib, uning ishqiy va axloqiy mavzudagi ko'plab g'azal va muxammaslari qo'shiqlarga aylanib, taniqli hofizlar tomonidan kuylab kelinmoqda.



Mavlono Lutfulloh Chustiy

Mavlono Lutfulloh Chustiy 1487-yil Chodak qishlog'idagi o'sha davrning ziyolilaridan bo'lgan Xo'ja Fathulloh oilasida dunyoga kelgan. 12-13 yoshlarigacha onasi qo'lida tahsil oladi. 15 yoshlik Mavlono Lutfulloh Samarqand madrasasini tamomlab, so'ng Isfaraga ustozi Shoh Xusan Chorkuxiy huzuriga kelib ilm oladi. Keyinchalik, aholining sharoitini yaxshilash maqsadida So'x soyini tartibga keltirib, 360 ta katta-kichik ariqqa bo'ladi. Buning natijasida So'x soyi atrofida obod qishloqlar paydo bo'la boshlaydi. Mazkur qishloqlar hozirgi So'x, Beshariq, Oltiariq tumanlarining paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qildi. Bir muddatdan so'ng, Shoh Xusan Chorkuxiydan fотиha olgan Mavlono Samarqandga jo'naydi. Samarqandda Maxdumi Azam qo'lida 30 yil tahsil oladi. Bilimi va odobidan mamnun bo'lgan ustozi Maxdumi Azam Samarqandning Daxbed qishlog'ida Mavlono Lutfullohga pirlilik maqomini beradi va 15 kundan so'ng vafot etadi.

Mavlono Lutfulloh 1539-yilda vodiya qaytib, Chodakda Zuburxon hozirgi Zvutqandda, so'ngra Karnon qishloqlarida ko'chib yurib, madrasa va masjidlar barpo qiladi va xalqqa ma'rifat ulashish yo'lida ko'plab ishlar olib boradi. Mavlono Lutfulloh 1546-yilda Chustga ko'chib keladi. Olim bo'lishi bilan birgalikda o'z davrining buyuk irrigatori va bitmas-tuganmas ilm sohibi bo'lgan Mavlono Lutfulloh Chustda bog'lar barpo qilish, dalalarni, aholini suv bilan ta'minlash maqsadida katta xizmatlar qiladi. Bundan tashqari, Chustda ham madrasa tashkil etib, ilm va ma'rifat tarqatadi. U kishining avlodi, yirik diniy ulamo Xo'jaxon qori 1884-1905-yillarda bobokaloni hurmatidan eski madrasa o'rniga masjid, minora va har biri 12 kvadrat metr maydonga ega 42 ta hujradan iborat madrasa bunyod qiladi. Bu madrasa, asosan, Chustning bir nechta sarmoyadorlarining va Xo'jaxon qorining donolik va zukoliklari uchun Xudoyorxon tomonidan in'om etilgan bir tovoq oltinlari hisobiga barpo etiladi. Hujralarda oftob tushmasligi uchun atrofga chinorlar ekib chiqiladi.



CHUST OSHINI YEGANMISIZ?

Chustliklar nafaqat milliy do'ppi va pichoqlari, balki, o'zbek pazandachiligining ustuni bo'lgan palov tayyorlash borasida ham mashhur.

Sayyohlar ishtiyoq bilan iste'mol qiladigan bu taomni xonadon bekalaridan tashqari umumiy ovqatlanish shaxobchalarida ham kiftini keltirib tayyorlashadi. Masalan, yil o'n ikki oy odam arimaydigan "Mavlono Lutfullo" nomli madaniyat va istirohat bog'idagi oshpazlarga buyurtma bering, bir soatga yetar yetmas vaqtda bir cho'qim devzira palov so'ridagi dasturxoningizga yetkaziladi. Bu Chust va Namanganning boshqa hududlarida gastronomik turizm allaqachondan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotganidan dalolat.



Chust oshi
haqidagi videorolikni
ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling.



SHAVKAT ABDUG'AFFOROV,
Koreyashunoslik fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

Chustning markaziy bog'i

Hozirda aynan o'sha madrasa atrofida Mavlono Lutfulloh nomidagi istirohat bog'i tashkil etilgan bo'lib, ushbu bog'da 20ga yaqin choyxona va dam olish maskanlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ta'kidlash joizki, Chustning eng katta va mashhur osh markazi ham aynan ushbu bog' hududida joylashgan. Bu bog'da Mavlono Lutfulloh maqbarasi, qadimiy muzey, bolalar va kattalar uchun turli xil attraksionlar, dong'i ketgan choyxonalar mavjud.



Mavlono Lutfulloh masjidi



GULSHANOY MAMATQODIROVA,
Koreyashunoslik fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

“REZAKSOY” SUV OMBORI

“Rezaksoy” suv ombori – Qurama tog’ tizmalaridan oqib tushadigan Rezaksoy daryosida qurilgan gidrotexnika inshooti. Namangan viloyatidagi Chust shahridan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloq xo’jalik ekinlarini suv bilan ta’minlashga xizmat qilmoqda. Suv ombori 2010-yilda tashkil topgan. To’g’onning uzunligi 4470 metr, balandligi 89 metr, umumiy maydoni 1058 gektar, to’liq sig’imi 300 million metr kub.



“Rezaksoy” suv ombori ekoturizm zonasi sifatida rivojlantirish uchun yetarlicha salohiyatga ega. Xususan, suv ombori sohillarida zamonaviy plyaj zonasi, suvda suzish uchun qayiq, gidrosikl va shu kabi suv ustida harakatlanish transportlari, ovqatlanish uchun kafelar tashkil etish mumkin. Yuqorida ko’rsatilgan takliflarni amalga oshirish uchun avvalo, kommunal infrotuzilma muammolari hal qilinishi zarur. Amalga oshiriladigan bu ishlar orqali ko’plab ish o’rinlarini yaratish va Chust tumani turizm salohiyatini yanada kuchaytirish mumkin bo’ladi.



OZDBEK RAIMQULOV,

Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a’zosi

Xo'ja Abdurahmon ibn Avf

Xo'ja Abdurahmon ibn Avf" ziyoratgohi Chust tumanida joylashgan qadimiy ziyoratgohlardan biri bo'lib, tarixi ba'zi manbalarda IX asr, ba'zi manbalarda XII asrga oid deb belgilanadi. Mahalliy tarixchilarning xabar berishicha, ushbu ziyoratgohga dafn etilgan inson mashhur sahobiy Abdurahmon ibn Avf bilan bir xil ismga ega bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Arabiston yarim orolida islom dini yoyilishi bilan musulmonlar islomni butun dunyoga yoyish uchun harakat boshlaydi va sahobiy va tobe'inlarning ilk guruhleri butun dunyo bo'ylab tarqalib ketadi.

Shulardan bir guruhi Shoh Jarir (Muhammad Jarir) boshchiligida Farg'ona vodiysiga, hozirgi Qirg'iziston hududidagi Safed Bulonga kelib o'rnashadi. Musulmonlar bu yerda o'zlari uchun masjid bunyod etishadi va mahalliy aholini islomga da'vat qila boshlaydi. Bir muddatdan so'ng mahalliy Mug' xalqining hujumi oqibatida bu yerdagi musulmonlar qirib tashlanadi. Manbalarda keltirilishicha, 2700ga yaqin tobe'inlar shu yerda vafot etadi. Ayrim yaralangan yoki omon qolgan musulmonlar atrofga tarqalib ketadi.



Shulardan biri Abdurahmon ibn Avf hozirgi Chust shahri yaqinidan qo'lim topadi. Keyinchalik, bu yerda masjid, chillaxona ham bunyod etiladi. Ushbu ziyoratgoh tarixi haqida batafsil ma'lumotlar saqlanib qolmagan bo'lsada, bu ziyoratgohning yoshi 800dan kam emas.

Agar ushbu ziyoratgohga tashrif buyuradigan bo'lsangiz sizni hayron qoldiradigan narsa bu devorlarning ikki yarim metr qalinlikda ekanligi.

Undan tashqari qadimiy chillaxonada foydalanilgan yog'ochlar va boshqa qurilish ashyolarining asl holatda saqlanishi bu obidaning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Shu bois Namangan viloyati hokimining 1999-yilning 19-oktabrdagi 283-sonli qarori bilan ushbu ziyoratgoh Namangan viloyati Xalqaro Oltin meros xayriya jamg'armasiga foydalanishga berilgan.



"Abdurahmon ibn Avf" ziyoratgohi haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

MUSLIMBEK ABDUMAJITOV,
Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti,
siyosati va turizm fakulteti talabasi

SALQIN HAVO, SHALDIROQ SOY, AJOYIB
TOG'LAR - ISSIQDA BORISHGA
ARZIYDIGAN

G'OVA

G'ova qishlog'i Namangan viloyati, Chust tumanining shimoliy qismida, qo'shni Qirg'iziston bilan chegara hududda tog' oralig'ida joylashgan. Tiniq va zilol suv oquvchi G'ovasoy, musaffo havosi bilan G'ova qishlog'i uzoq yillardan buyon vodi ahlining dam olish, hordiq chiqarish maskaniga aylanib ulgurgan.

Bu yerda aholi asosan dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va asalarichilik bilan shug'ullanadi. Qishloq hududining katta qismi tog' bilan tutashib ketgani, qishloq o'rtasidan soy oqib o'tganligi va aholi tomonidan ko'plab daraxtlar ekilgani hududning salqin havosini ta'minlaydi.

Shu boisdan ham yozning issiq kunlarida Andijon, Farg'ona hamda Namanganning boshqa tumanlaridan va Chust tumanining boshqa qishloqlaridan ham G'ovada dam olish uchun kelishadi.

Qishloq kartoshka yetishtirishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, G'ovada kartoshka ekmaydigan xonadonni topish amrimahol. Dehqonchilikning qiziq tomoni shundaki, ekinni yerga qadash, unga ishlov berish va hosilni yig'ish ishlari ot va eshaklar yordamida amalga oshiriladi.

Qishloqda kartoshka shunchalik ko'p ekiladiki, mavsumda qishloq hududida kartoshkani ulgurji sotuvchi alohida bozor tashkil qilinadi. Dehqonlarning aytishicha, ba'zida bu bozordan kuniga 500 tonnagacha kartoshka boshqa hududlarga sotilar ekan.

G'ova qishlog'i
haqidagi videorolikni
ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling.



SHAVKAT ABDUG'AFFOROV,
Koreyashunoslik fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

CHUST - KO'HNA VODIY YURAGI

Ko'pgina tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Chust shahri qadimdan xalq tilida Tus, Tuss, Tuz va keyinchalik, Chust deb atalgan. "Chust" atamasi - "tez", "o'tkir", "tekis", "ravon", "silliq" ma'nolarini bildiradi. Chust shahri Olmos-Varzik tog' oldi tekisliklarida, Rezaksoy va G'ovasoy oralg'ida, Chustsoy atrofida dengiz sathidan 1200 metr balandlikda, viloyat markazi Namangan shahridan 40 km uzoqda joylashgan. Chustdan qadimda Buyuk Ipak yo'li o'tgan bo'lib, vodiyning eng katta bozorlaridan biri shu yerda joylashgan.



Hozirgi kunda Toshkent-O'sh katta avtomobil yo'li o'tadigan Chust tumanining markazi va atrofidagi qishloqlarda turli davrlar (Antik davr, Bronza davri, O'rta asrlar)ga oid ko'plab yodgorliklar topilmoqda. Buyuk Ipak yo'li o'tgan, hunarmandchiligi rivojlangan, dunyo tan olgan, salkam 4 ming yillik tarixga ega Chust pichog'i va 2 ming yildan uzoq tarixga ega Chust do'ppisi, tikuvchilik, to'quvchilik, ko'nchilik, kosiblik va boshqa qadimiy

hunar mandchilik turlari mavjud bo'lgan bu shaharning savdo-sotiq va tijorat bo'yicha ham o'zining alohida o'rnini bor. Chust shahri tarixi Bronza davriga, ya'ni eramizdan avvalgi 2-ming yilliklarga to'g'ri keladi. Aniqrog'i Chust bundan 3700 yil avval ham madaniyati gurkiragan shahar bo'lgan.

Chustga bo'lgan sayohatimiz davomida bu shaharning qadimiyligiga juda ko'p guvoh bo'ldik. Shahardagi tarixiy qadamjolar, ziyoratgohlar va takrorlanmas tabiat insonni o'ziga ohangrabo kabi tortmasdan qolmaydi.

Jumladan, "Do'zand" mahallasida pichoqchilar istiqomat qilgan bo'lib, bugungi kunda ajdodlar an'anasini saqlab qolgan va o'z turidagi ustalarning yettinchi avlodi sanalgan inson bor. Uning ismi Axadjon Abdurahimov, lekin xalq orasida uni "Oltin qo'lli usta" deb ham atashadi. Uning so'zlariga ko'ra, bitta pichoqni tayyorlash juda mashaqqatli jarayonni talab qiladi, chunki u 75 bosqichdan iborat. Odatda, pichoqning bir partiyasi pichoq turiga qarab 4-5 kun ichida tayyor bo'ladi. Turist yoki kolleksionerlar uchun mo'ljallangan pichoqlar bor bo'lib, ular o'zining takrorlanmas dizayni bilan ajralib turadi. Undan tashqari, pichoqlarning yuqori narxiga qaramay xaridorgirligi, hatto, chetda ham yuqori baholanishi ularning sifati yuqoriligidan darak beradi.

Chust pichog'i
haqidagi videorolikni
ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling.



DILRUZA IBRAGIMOVA,
Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va
turizm fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

CHUST

2023-yil 29-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, unda mamlakatda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bo'yicha qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Ushbu vazifalarni amalda bajarish, O'zbekistonning turizm salohiyatini tubdan o'rganish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining yosh, shijoatli va qobiliyatli talablaridan tashkil topgan guruhlar Farg'onaning Rishton, Surxondaryoning Boysun, Namanganning Chust va Yangiqo'rg'on tumanlariga 10-17-may kunlari amaliyot o'tash uchun yuborildi.

M.Askarov va R.Riskulov boshchiligidagi 15 ta talaba-yoshlar Chust tumaniga yo'l oldi. Namangan viloyatida joylashgan Chust tumaniga yetib borish uchun bir nechta yo'ldan va transport turidan foydalanish mumkin:

TUMANI TURIZM SALOHIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

1. Havo yo'li orqali: samolyotda Namangan shahri aeroportiga, so'ng u yerdan taksi yordamida Chust tumaniga yetib kelish mumkin. Yo'l uchun sarf qilinadigan vaqt o'rtacha 2 soatni, xizmat narxi esa, 300 ming so'mni (25-30\$) (bir tomonga) tashkil qiladi;

2. Poyezd orqali Janubiy vokzaldan Qo'ng'iro't-Andijon yo'nalishidagi 128F raqamli poyezd orqali, haftaning chorshanba va yakshanba kunlari tonggi 05:22 dan Chustga, ertalab 09:45 da Toshkentga kelish mumkin. Yo'l uchun sarf qilinadigan vaqt o'rtacha 4-5 soatni, xizmat narxi esa, 100 ming so'mni (8-10\$) (bir tomonga) tashkil qiladi;

3. Toshkent-Chust yo'nalishida taksi xizmati orqali ham manzilga ulashish mumkin. Bu holatda avval Toshkent shahri Qo'yliq massivida joylashgan vodiy mashinalar turargohiga kelish, shu joydan yo'lga chiqish mumkin. Taksi xizmatidan istagan vaqtda foydalana olasiz. Yo'l uchun sarf qilinadigan vaqt o'rtacha 4-5 soatni, xizmat narxi esa, 100-120 ming so'mni (9-10\$) (bir tomonga) tashkil qiladi.

Ushbu usullardan istalgani orqali Chustga yetib kelish mumkin, faqat poyezd orqali kelish qulay, arzon va havfsiz hisoblanadi.

Transport xizmati to'g'risida gap ketganda, Chust tumaniga yetib kelgandan so'ng asosiy qiyinchiliklar boshlanadi. Chunki hududga yetib kelishdan ko'ra, tumanda joylashgan ziyoratgoh va boshqa diqqatga sazovor joylarga borish qiyinchilik tug'diradi.



Tumanda kamida besh-ta onlayn, doimiy taksi xizmati mavjud bo'lib, uning raqamlarini istalgan joydan topish mumkin. Chust markazidagi yo'llar yaxshi qoplamaga ega, ammo tuman markazidan 5-6 km tashqariga harakatlanish bilan sifatsiz yo'llar soni ko'payadi.

Bundan tashqari, vokzal, Chustga mashinada kirib kelish darvozalarida ko'rsatkichlar deyarli yo'q. Agar turist birinchi marotaba bu hududga kelayotgan bo'lsa, kerakli manzillarini topishda anchagina qiynaladi.



Chust pichoqlari haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

Chust tumaniga kelib olgandan so'ng turist mehmonxona qidirishni boshlaydi. Tumanda "Chust", "Shohona" kabi zamonaviy mehmonxonalar bilan bir qatorda servis xizmati yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan mehmonxonalar ham mavjudligi aniqlandi. Ulardagi narxlar ham servisga yarasha 1 kunga 100 ming so'mdan 650 ming so'm-gacha (9-60\$). Shuningdek, tumanning G'ova qishlog'ida ekoturizm uchun qulay sharoitlar bo'lib, uy mehmonxonalari, asosan, shu hududda joylashgan. Ushbu sohada muammolarni hal qilish maqsadida mehmonxonalarni yulduzlashtirish tizimi, servis nazoratini tashkil qilish, xodimlarni til bilish darajasini aniqlash va o'qitishni joriy qilish muhimdir.



Chust tumaniga yetib kelib, mehmonxonaga joylashgandan so'ng ovqatlanish masalasi yuzaga keladi. Chust tumanida ovqatlanish katta shaharlarga qaraganda ancha arzonidir.

Nonushta 15-20 ming so'm (1-2\$), tushlik 20-30

ming so'm (2-3\$), kechki ovqat 20-30 ming so'm (2-3\$)ni tashkil qiladi. Bir kunlik ovqatlanish uchun xarajatlar o'rtacha 70-80 ming so'm (6-8\$) bo'ladi. Albatta, tumanda narxi o'rtadan yuqori bo'lgan ovqatlanish maskanlari, choyxona va mashhur Chust oshi bo'lib, ularning narxlari biroz yuqoriroq. Chust oshini bir guruh bo'lib tanovul qilish o'rtacha 50-60 ming (5-6\$). Chunki 1 kg Chust oshining narxi o'rtacha 200-250 ming so'm (18-24\$) bo'lib, bu hajmdagi oshni 6-8 kishi tanovul qilishi mumkin.

Chust tumaniga tashrif buyurganda turist 4-5 kungacha o'z vaqtini samarali tashkil qilishi mumkin. Ya'ni, sayohatning birinchi kunida Chust tumaniga yetib kelish, mehmonxonaga joylashuv va Mavlono Lutfullo nomidagi Chust bog'iga tashrif bilan o'tsa, ikkinchi kuni markazga yaqin joylashgan Bibi ona, Otchopar Eshon va Ko'k to'nli ota ziyoratgohlariga tashrif uyushtirish mumkin. Sayohatning uchinchi kunida G'ovasoy hududiga eko turizm safarini amalga oshirib, tabiatning go'zalligidan bahramand bo'lish imkoni bo'lsa, to'rtinchi kuni mashhur Chust do'ppisi va Chust pichoqlarining yasalishi va tikilishini bevosita ko'rgani, xarid qilgani borish mumkin. Sayohatning so'nggi kuni-da Chust dehqon bozori-



ga tashrif buyurib, mazali meva va shirinliklar, issiq non va boshqa ne'matlardan sotib olish imkoni bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Chust tumaniga tashrif buyurib, maroqli ravishda 4-5 kun vaqtni o'tkazish, ziyorat, savdo, ekoturizmdan, mahalliy aholining o'ziga xos tabiati, mohir hunarmandlarning mahsulotlari, mazali osh va boshqa taomlardan bahramand bo'lish imkoniyati mavjud. Hududdagi yo'l, ko'rsat-kichlar, til bilish, gidlar-ning kamligi va boshqa bir qator muammolarni hal etilishi, Chustga ichki va tashqi sayyohlarni jalb etilishga katta yo'l ochadi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tomonidan tashkil etilgan amaliyot esa, ushbu hududni O'zbekiston aholisi va xorijliklar uchun tanishtirishda juda foydali bo'ladi deyishimiz mumkin.

*Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi" kafedrası
dos. v.b., PhD MIRZOHIJ ASKAROV

“KO‘K TO‘NLI OTA” ZIYORATGOHI

Tarix zarvaraq-lari orasida unitilgan ulug‘ avliyo

“Ko‘k to‘nli ota” ya‘ni, Muhammad Zabonboyni XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xo‘ja Ahmad Yassaviy bilan hamsuhbat bo‘lgan va u zotga shogird sanalgan ham deyishadi. Tarixiy ma‘lumotlarga qaraganda, Xo‘ja Ahmad Yassaviy 1041-yilda dunyoga kelgan va 1167-yilda 126 yoshida vafot etgan, yillar nisbatiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “Ko‘k to‘nli ota” 20 yosh bo‘lganida Ahmad Yassaviy olamdan o‘tgan ekan, demak taxminlar va rivoyatlar haqiqat bo‘lishi mumkin. “Ko‘k to‘nli ota” bitta odam emas, u kishining farzandlari ham bo‘lib, “Ko‘k to‘nli” taxallusi avlod-dan-avlodga o‘tib kelgan.



“Ko‘k to‘nli” ota hurmati uchun Xo‘jaobod mahallasining boylaridan biri Vorisboy tomonidan aynan ko‘k yo‘tal kasalidan shu zoti sharifga ixlos qilib sog‘aygani sababli uning qabri oldiga 1888-yilda masjid qurilgan.

Sovet davrida masjid hovlisining asosiy qismi sil kasalliklari dispanseri va poliklinika sifatida foydalanib kelingan. Hozirgi kunda Hafizulloh Hoji ota Mahkamov tashabbusi va rahbarligida hashar yo‘li bilan mahalla aholisi tomonidan bu ziyoratgoh qaytadan ta‘mirlangan.

JAYRONA NOMOZOVA,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti talabasi



CHUSTLIK SOBIRXON AKA

Sobirxon Mo'minov tashabbusi bilan 2018-yil iyun oyida Chust tumanidagi madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va tarixini tiklash maqsadida "Azizlar yurti" xayriya jamoat fondi tashkil qilindi.

S.Mo'minov mazkur vazifada jamoat fondi tashkil etilgandan buyon rais lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

"Azizlar yurti" xayriya jamoat fondi harakati bilan mavjud 34 ta moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan va S.Mo'minov tomonidan tarixiy ahamiyatga ega joylar to'g'risida ma'lumotlar yig'ish davom ettirilmoqda.

Jumladan, Chust tumanida turizmni rivojlantirish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shahardagi "Bibiona", "Mavlono Lutfulloh", "Ko'k to'nli ota", Toshqo'rg'on qishlog'idagi "Xo'ja Abdurahmon Ibn Avf", Og'asaroy qishlog'idagi "Xojai Dod", ziyoratgohlari to'g'risida to'liq ma'lumot beruvchi bukletlarning tayyorlanishi shahar mehmonlari va turistlar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Hozirgi kunga qadar "Azizlar yurti" xayriya jamoat fondi sa'yi-harakati bilan ushbu maskanlarda qayta qurish, rekonstruksiya qilish va umuman, qayta tiklash ishlari olib borilmoqda. Masalan: (hahar yo'li bilan) Chust shahridagi "Bibiona" va Toshqo'rg'ondagi "Xo'ja Abdurahmon ibn Avf" ziyoratgohlari, shaxsiy tashabbusi bilan to'liq tiklangan "Otchopar eshon", "Ko'k to'nli ota", Og'asaroy qishlog'idagi "Xojai Dod", Olmos qishlog'idagi "O'qli ota" ziyoratgohlari shular jumlasidandir.



Bugungi kunda "Bibiona" ziyoratgohida to'liq rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmoqda. Maqbara qurilishi yakunlandi. Ziyoratgohga tashrif buyuruvchilarga yana bir qulaylik tug'dirish maqsadida 200

o'rinli namozxona binosi ham qad ko'tardi. Albatta, bu ishlarining barchasi tuzmanning serhimmat fuqarolari va fidoyilari sa'y-harakatlari tufayli barpo etilmoqda. Hozirda ushbu ziyoratgohda qurilish va rekonstruksiya ishlari davom etmoqda.



S.Mo'minovning 30 dan ziyod dolzarb mavzudagi jumladan, Chust tumani tarixiga oid 10dan ortiq, ekologik muammolarga oid 2 ta, odam savdosiga oid 5 ta, ma'naviyat va ma'rifatga oid 10dan ortiq maqolalari tuman va viloyat ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmoqda.

S.Mo'minov ham ijodkor ham tashabbuskor inson sifatida 2011-yil dekabr oyidan "Ra'no" nomli firmasini mas'uliyati cheklangan jamiyatga aylantirib, kinohavaskorlar va teatrga qiziquvchi 20 nafarga yaqin uyushmagan yoshlarni birlashtirdi. Kinohavaskorlarning "Chust

kinostudiyasi"ni va "Chust yoshlari" havaskorlik teatr guruhini tashkil qildi. Yoshlar tarbiyasiga oid "Sirtmoq", "Ushalmaydigan orzu" nomli asari sahnalashtirilib, tomoshabinlarga taqdim etildi.

Uning ssenariysi asosida "Chust kinostudiyasi"da shoir Nabixon Xo'jayev-Chustiy tavalludining 107 yilligiga bag'ishlab "Boqiy umr" hujjatli filmi suratga olindi. Hozirgi kunda odam savdosiga oid 2ta, ekologik muammolarga oid 1ta va yoshlar tarbiyasiga oid 1ta ssenariylari tayyor holda va

tarixiy hujjatli film uchun "Hazrati Mavlono Lutfulloh" nomli ssenariysi oxiriga yetkazilmoqda.

S.Mo'minovning ko'hna va qadimiy Chust tarixiga oid "Azizlar yurti" nomli kitobi nashrga tayyolandi.

Ijodkor ommaviy axborot vositalarida nashr etilgan dolzarb mavzudagi maqolalari, hikoya va she'rlarini to'plab, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi "Aslo bo'lma dangasa", "Ushalmaydigan orzu" va "Men sizga aytsam" nomli hajviy hikoyalar to'plamini kitob tarzida chop ettirish arafa-

sida.

2015-yildan boshlab 2023-yilgacha Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Chust tuman bo'linmasida bosh mutaxassis bo'lib ishgan.

2020-yilda "Eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" nominatsiyasida tumanda birinchi va viloyatda ikkinchi o'rinlarni egallab tuman va viloyat hokimlarining diplom hamda esdalik sovg'alarini qo'lga kiritgan.

S.Mo'minov ikki farzandning otasi, yetti nafar nabiraning sevimli bobosi.



SHAVKAT ABDUG'AFFOROV,
Koreyashunoslik fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi



Namangan viloyati azaldan o'zining boy tarixi, muqaddas buloqlari bilan mashhur. Barcha muqaddas buloqlarning boshlanishi "Bibi ona" hisoblanadi. Bu yerda so'nggi bronza davriga oid "Bibionamazor" arxeologik yodgorligi joylashgan. Yodgorlik Chust tumanida joylashgan bo'lib, 4,5 gektar maydonni egallaydi. Qadimiy yodgorlik hududida muqaddas "Bibi ona - qaynar buloq" buloq joylashgan. Manbadan uncha uzoq bo'lmagan joyda yodgorlikning qadimiy o'tmishini tasdiqlovchi ko'plab topilmalar topilgan.



Muqaddas "Bibi ona" buloqi Chustning barcha buloqlarining boshidir. Afsonaga ko'ra, Bibi ona malika bo'lgan va uning nomi bilan atalgan suvning o'zi shifobaxsh xususiyatlarga ega. Yurtimizning turli burchaklaridan odamlar turli kasalliklarga, ham ko'z kasalliklariga, ham bepushtlikka davo bo'ladi. Qishloqdoshlar, agar siz butunlay suvga sho'ng'isangiz, o'zingizni yomon fikrlardan tozalab, xotirjamlik topishingiz mumkinligini aytishadi.

"Bibi ona" ziyoratgohi haqidagi intervyuni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.



NIGINA NAJMIDDINOVA,
Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti,
siyosati va turizm fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

Chustning
ulug' avliyosi

OTCHOPAR ESHON

"Chust Takiya"
mehmonxonasi



"Otchopar eshon" ziyoratgohi - Chust shahri markaziy dehqon bozori yaqinida, "Pansada" mahallasiga kiraverishda joylashgan tarixiy majmua. Ziyoratgoh 300 yillik tarixga ega bo'lib, XVII-XVIII asrlarda bunyod etilgan.



Bu ziyoratgohga yiliga 10-12 ming atrofida ziyoratchilar tashrif buyuradi. Ushbu ziyoratgoh xalq tilida "Shersuvor" eshon nomi bilan tanilgan asl ismi Mirko'sak eshonning (ba'zi manbalarda bu nom sher minganliklari bilan bog'liq deb aytilsa, ba'zi manbalarda esa Samarqandagi Sherdor madrasasida tahsil olgani bilan bog'liqligi aytiladi) o'g'li Mirsaidxon eshonning sharafiga bunyod etilgan. Ziyoratgoh tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, Mirsaid eshon XVIII asr oxirida Chustda tavallud topadi. Uning avlodlari asli Afg'onistonning Qunduz shahridan bo'lib, Chustga keyinchalik ko'chib kelgan. Hozirgi ziyoratgoh o'rnida 1825-yilda madrasa va masjid bunyod etiladi.



Bu masjid va madrasa qariyb bir asr faoliyat olib borib, yuzlab talabalarni yetishtirib chiqaradi. Majmua tarkibiga kiruvchi xonaqoh va chillaxona ham o'sha davrda qurilgan bo'lib, insonlar u yerda ibodat bilan mashg'ul bo'lishgan.



“Otchopar eshon”
ziyoratgohi haqida
videorolikni ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling



Mahalliy aholining aytishicha, Mirsaid eshon ko'plab karomatlarga ega bo'lgani uchun unga zamondosh bo'lgan ko'plab ziyoratchilar va tolibi ilmlar bu yerni ziyorat qilish uchun kelib turishgan. Ruslar bosqinidan so'ng, bu yer hunarmandlarning arteliga aylantiriladi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda ziyoratgoh butunlay qarovsiz qoldiriladi va maydoni ham qisqartirib tashlanadi. 1950-yilda esa masjid butunlay buzib tashlanadi. Mustaqillik yillarida obida alohida muhofazaga olinib, 2016-yilda homiyilar tomonidan rekonstruksiya qilinadi.

“CHUST TAKIYA”

Ziyoratgoh tarixini o'rganish davomida Otchopar eshon nomi bilan bog'liq qiziq ma'lumotga duch keldik. Biz Otchopar eshon hozirgi Saudiya Arabistoni Makka shahridagi Haram masjidi hududida mehmonxona bunyod ettirgan haqida eshit-

gan edik va buni qanchalik haqiqat ekanligini aniqlash uchun u kishining avlodlari bilan suhbatlashdik. U inson bizga kerakli vaqf hujjatlari va mehmonxona haqiqatdan u kishi tomonidan bunyod etilgani haqidagi hujjatlarni taqdim etdi.



YIRIK MEROS

Hujjatlarning guvohlik berishicha, o'tgan asr boshlarida Mirsaid eshonning otasi Mirraimxon to'ra Madina va Makka shaharlarida “Chust takiya” nomida mehmonxona bunyod etgan. U mehmonxonalarining o'rnida hozirda 16 qavatli yirik binolar bunyod etilgan. Hozirda ushbu mulklarni asl egalari qaytarish uchun O'zbekiston va Saudiya Arabistoni Adliya vazirliklari tomonidan harakatlar olib borilmoqda.

MUSLIMBEK ABDUMAJITOV

Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti,
siyosati va turizm fakulteti talabasi



CHUST - HUNARMANDLAR YURTI

Namangan viloyatida vodiyning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan va o'zining noyob pichoqlari, shuningdek an'anaviy bosh kiyimi – do'ppilari bilan mashhur bo'lgan Chust shahri joylashgan. Shahar ustalari tomonidan yasalgan pichoqlar haqli ravishda mamlakatda eng yaxshi degan nomga loyiqdir.

Chust O'rta Osiyoning eng qadimgi metallga ishlov beruvchi shaharlaridan biridir. Shaharning qoq markazida so'zangarlar – Chustning qalbi hisoblangan pichoq yasovchi temirchilar mavzesi bor. Kichkina temirchilik ustaxonalarida azaliy so'zangarlar qo'lda o'zbek pichoqlarini yasaydilar.

Pichoqlarning har birining o'z vazifasi bor. Chust pichoqlari nihoyatda o'tkir va chiroylidir. Ularning tig'i uzoq vaqt davomida egasiga xizmat qiladi va o'tkirligicha qoladi.

O'zbekistonda "Chust pichog'i" atamasi "Yuqori sifatli pichoq" iborasi bilan ma'nodosh sanaladi.

O'rta Osiyoda mil.avv. VIII asrda "Bibiona" qadamjosida mahalliy aholi pichoqchilik hunari bilan shug'ullanishgan. Mil.avv. VIII asrdan to XV asrga qadar Chustda faqat pichoq ishlab chiqarilgan. Shu sababli, butun dunyoga Chust pichog'i nomi mashhur bo'lgan. Bugungi kunda "yorma", "bodomcha", "chamandasta", "chumchuq" va "etik sopli" pichoqlari yasalib, chet elga eksport qilinmoqda.

Chust milliy pichoqlari ko'hna va qadimiy bo'lib, qo'l mehnati bilan tayyorlanganligi sababli dunyoning barcha mamlakatlarida xaridorgir mahsulot hisoblanadi. Haqiqiy Chust pichog'i har doim tashqi go'zalligi

bilan boshqa pichoqlardan ajralib turadi. Odatda uning tig'i tekis, kengligi 3-4 sm va uzunligi 10 dan 20 sm gacha bo'ladi. Haqiqiy Chust pichog'ining sopi fil suyagi, sayg'oq yoki bug'u suyagidan yasalgan bo'ladi. Marvarid, kumush yoki rangli toshlar bilan bezatilgan bo'lib, metall qismi o'yma naqshlar bilan ishlangan bo'ladi. Shu sababli bu pichoqlar xalq tilida "Guldor pichoq" deb ataladi.

Chust pichoqlari pichoqning shakli va kengligiga qarab bir necha turlarga bo'linadi: tor, qiyshiq tig'i bor, biroz tol bargini eslatuvchi "Tolbargi pichoq", muhrasi (keskir tomoniga qarama-qarshi tomon) tekis "to'g'ri pichoq", tig'i biroz egilgan "Hisor pichoq", "Qozoqi pichoq" va "Bodomcha pichoq", tig'ining yuqori qismida chuqurchasi bo'ladigan "Soylik pichoq" va xuddi shunga o'xshash yuqori

cheti qo'shkamalak bo'ylab chuqurchaga ega "Kamalak pichoq" va "Qushsoylik pichog'i" kabi turlarga bo'linadi.

Chustda an'anaviy pichoqlarning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z maqsadiga ega. Oshxonada ishlatish, go'shtni kesish yoki sabzavotlarni tozalash va maydalash uchun pichoqlar mavjud. Hatto mevalarni tozalash uchun maxsus kichik pichoqlar, ovchilar uchun qulay pichoqlar, daraxtlarni kesish uchun ham maxsus pichoqlar foydalaniladi. Shunday ekan, aziz o'quvchi, ming marta eshitgandan ko'ra bir marta borib ko'rgan yaxshi.



Chust pichog'i haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

SUHROB TUGALOV,
Kechki va sirtqi bo'im talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

Namanganning mehmoni

Yoqar dilga xush kalomi, zaboni,
O'zbek kiysa yarashadi choponi,
Uzun tarix, ertak misol karvoni,
Qolmasin desangiz qalbim armoni,
Bo'ling Namanganning aziz mehmoni!

Do'ppi kiysa yarashar o'zbek qizi,
Sizlab-sizlab jon olar qorako'zi,
Chustiy kabi shoirlar qolgan izi,
Tarixi buyukdir, buyuk karvoni,
Bo'ling Namanganning aziz mehmoni!



Viqorli tog'ida yayraydi bu jon,
Chustning osh-nonlari har darga darmon,
Pichoq, do'ppilari o'zlikdan nishon,
Buyuk donishmandlar o'tgan makoni,
Bo'ling Namanganning aziz mehmoni!

Tong sahar bir mayin esadi sabo,
Sharqirab oqar soy, musaffo havo,
Qilar mehmoniga hatto jon fido,
Bir borgina qolib hayot hayroni,
Bo'ling Namanganning aziz mehmoni.

Rishtondagi kullollari o'zgacha,
Boring toqqa, Nanay degan joygacha,
Chust oshidan tating, ichib choygacha,
Xullas Nilufarning shudir kalomi,
Bo'ling Namanganning aziz mehmoni!



NILUFAR ATQIYOYEVA,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti talabasi

Chust do'ppilari
haqidagi videorolikni
ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling.





RISHTON

BU LOGODA
RISHTONNI O'ZIGA
XOS UCHTA ENG
MASHHUR
MAHSULOTI BILAN
TANISHTIRGANMIZ:

1. KULOLCHILIK
BUYUMI;
2. RISHTON OSHI;
3. QANDAK O'RIK.

Rishton kulolchiligi ming yillik tarixga ega. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu hunarni 12 yoshimdan o'rganishni boshlaganman.

Bitta kulol 10-12 yilda usta bo'lib yetishadi. Aytaylik, 20 yoshida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganishga kirishgan shogird 30 yoshida haqiqiy usta darajasiga erishadi.

Biz – Rishtonlik kulollar yaqingacha uy sharoitida faoliyat yuritib kelayotgan edik. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barcha qulayliklarga ega Rishton xalqaro kulolchilik markazining tashkil etilishi, nafaqat, bizlarni bir joyga jamladi, balki an'anaviy kulolchilik sir-asrorlarini o'rganish, yo'qolib ketgan turlarini tiklash, o'zaro tajriba almashish, bir so'z bilan aytganda, Rishton an'anaviy kulolchiligi rivojiga xizmat qilmoqda.

140 dan ortiq shogirdlarim bor. "Temir daftar"ga kiritilgan va kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga ham kasb-hunar o'rgatyapmiz. Ular hunarni o'rganganidan so'ng, mustaqil faoliyat olib boradi, o'z daromadiga ega bo'ladi.

Xorijiy davlatlarda mahsulotlarimizga talab katta. Majmuaning qurilishi esa eksport salohiyatimizni oshirdi. Hozirda Rossiyaning Moskva shahrida, shuningdek, Fransiya va Avstriyada do'konlarimiz bor, shu orqali mahsulotlarimizni sotamiz.

Rishton kulolchilik yo'nalishida an'anani saqlagan holda ishlab chiqargan mahsulotlarimiz muzeylar, galereyalarda saqlanadi. Kulolchilik zavodlari bor, ammo mazkur majmua an'anaviy kulolchilikni saqlab qolishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. E'tiborli jihat, bu milliy hunarmandchiligimizni tanishtirish va targ'ib etishda o'рни katta. Sayyohlar bu yerda kulollarning hayoti va ish jarayoni bilan tanishadi, mahsulotlarni sotib olishi mumkin.

Markaz Rishtonlik kulollarning ming yillik orzusi edi. Majmua qurilishi davlatimizning hunarmandlarga katta e'tibori samarasi, deyish mumkin. Biz bu an'analarni davom ettirib, ko'proq yoshlarni hunarga o'rgatishimiz kerak. Milliy hunarmandchilik brendini jahonga tanita olsak, asosiy yutug'imiz bo'ladi.

Davlatimiz rahbari majmuamizga tashrif buyurib, kulollar bilan muloqot qildi. Bu bizlarga yanada kuch-quvvat bag'ishladi, tariximizga, xalq amaliy san'atiga yuksak baho bo'ldi. Bu, o'z navbatida, hunarmandlarga mas'uliyat yuklaydi. Biz bu ishonchni, albatta, oqlaymiz.



Alisher Nazirov ustaxonasidan
turk tilida tayyorlangan
lavhani ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling.



ALISHER NAZIROV,
O'zbekiston xalq ustasi

**TADBIRKOR NAFAQAT
O'ZINI VA OILASINI,
BALKI XALQNI HAM,
DAVLATNI HAM BOQADI!**
SH. MIRZIYOYEV



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari bu yil Vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ'ib qilish yili bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi. Yig'ilishda "O'zbekiston tashrif qo'g'ozini"ni ishlab chiqib, turizm brendini yangilash, xalqaro telekanallar va internet platformalarida O'zbekiston haqidagi reklama roliklarini ko'paytirish muhimligi qayd etildi.

Berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 11 ta oliy ta'lim muassasasi 31 ta tuman hamda 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumotlar majmuini yaratish va ko'maklashishga birlashtirildi.

RISHTON BRENDGA AYLANA OLDI(MI)?

Respublikamizning qadimiy va muhim madaniy meros obyektlariga ega, hunarmandchilikning bir qancha turlari rivojlangan, ekoturizm salohiyatiga ega tumanlaridan to'rttasi - Rishton, Chust, Yangiqo'rg'on va Boysun tumanlarida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 65 nafar talaba-yoshlari amaliyot rahbarlari boshchiligida 10-17-may kunlari turizm amaliyoti o'tashdi.

Rishton tumani turizm amaliyotchilari guruhi a'zosi sifatida bir haftaga mo'ljallangan missiyamizni eng sifatli ko'rinishda yakunlashimizda o'z hissamni qo'shishga harakat qildim.

Tarix, ziyoratgohlar, hunarmandchilik, sayyohlar, qarashlar, qiziqishlar... Bularning hammasi yoshlarning ko'zida beshqacha ko'rinadi va biz bor imkoniyatlarimizdan kelib chiqib Rishton tumanining turizm salohiyatini ko'rsatib berish uchun tur paketlar, broshyuralar, videolar va maqolalar tayyorladik.

Rishton tumani – Markaziy Osiyodagi eng yirik sirlangan sopol buyumlar markazi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Farg'ona viloyatining qadimiy shaharlaridan biri. Rishton xalqi samimiyligi, odamshinavandalligi bilan yodingizda qoladi. Qisqa qilib aytganda, hunarini san'at darajasiga chiqara olgan tanti insonlar yurti, Rishton tumani, nafaqat, kulolchiligi bilan mashhur, balki bu tumanda juda ko'p ziyoratgohlar, qadamjolar ham bor.

Ma'lumotlarga ko'ra, har yili "Xo'ja Rushnoliy" ziyoratgohiga o'rtacha 120 ming, "Xo'ja Ilg'or"ga 100 ming, "Sohibi Hidoya"ga 50 ming, "Mulla Ismatulloh qori" ziyoratgohiga 25 ming nafar ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Xususan, musulmon davlatlardan keluvchi sayyohlar va ziyoratchilar safi yil sayin ortib bormoqda.



Rishton nomini Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy kabi adib-u allomalar o'z asarlarida tilga olgan. Burhoniddin Marg'inoniy, Mirzaabdulla Boqiy singari ilm ahillari, ko'plab fan arboblari, taniqli shaxslarga beshik bo'lgan. Bugun tumanda ulkan bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda, yangi korxonalar ish boshlagan, zamonaviy bino-inshootlar qad rostlagan.

Tumanda 71 ta mahalla fuqarolari yig'ini bor. Tuman markazi va yaqin qishloqlarda kulolchilik rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi bog'dorchilik, tokchilikka ixtisoslashgan. Mashhur Rishton qandak o'riklari, Cho'ng'ara devzirasi yetishtiriladi. Turli sohadagi yuzdan ortiq sanoat korxonasi ishlab turibdi.

Turizm amaliyotimiz davomida 12 ta kulolchilik mahallalari va bir qator muqaddas ziyoratgohlar bilan tanishdik. Haqiqiy qo'l mehnati sehrini his qila oladigan muhitda – Rishton tumani xalqaro kulolchilik markazida 20 ta kulol oilasi bilan bir hafta davomida birga yashab, mehnatkash usta kulollarimizdan oz bo'lsada kulolchilik sirlarini o'rgandik.

Usta kulol Shokir Ahmadjonovning "Mingboshi ceramic" oilaviy korxonasi bilan tanishib, Rishtonning ishbilarmon insonlaridan yana birini o'zimiz uchun kashf qildik. 33 yoshli Shokir usta boshchiligidagi korxonada bugungi kunda AQSh, Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Tojikiston, Kanada, Latviya, Litva, Estoniya, Turkiya kabi davlatlarga sopol buyumlarni eksport qiladi. Hali yosh bo'lishiga qaramasdan 102 nafar doimiy ishchi va 3000 dan ortiq kasanachini ish bilan ta'minlagan.



Usta kulol Shokir Ahmadjonov boshchiligidagi "Mingboshi ceramic" oilaviy korxonasining sopol mahsulotlari ishlab chiqarish va bezak berish sehdan tayyorlangan reportajni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.



Xalqaro
hunarmandchilik
forumidan
tayyorlangan
reportajni
ko'rish uchun
QR kodni
skaner qiling.



"Rishtonida tug'ilib o'sganimdan juda ham xursand bo'laman. Bir umr shu hunar bilan birgamiz, sopol buyumlarimizning dunyoga chiqayotgani, sayyohlarning qiziqish bilan aynan bizning ishlarimizni ko'rish uchun kelishlari faxrlantiradi, albatta. Bizning kasbimiz turizm bilan uzviy bog'liq. Insonlar go'zallikni bo'lishishni xohlashadi. Kelib ishlarimizni ko'rgan sayyohlar o'zlari bilan olib ketib, o'z yurtlarida boshqalarga ham ko'rsatishadi. Turli xalqaro ko'rgazmalar, yarmarkalarda qatnashamiz. Bularning hammasi kulolchiligimizga, tumanimizga bo'lgan qiziqishni orttiriyapti. Shu bilan turizm rivojlanishiga ham oz bo'lsa-da hissamizni qo'shishga harakat qilyapmiz", - deydi Shokir Ahmadjonov kamtarona ohangda.

Amaliyotimiz davomida, nafaqat, Rishtonning turizm salohiyatini ko'rsatib berishga harakat qildik, balki turizm rivojlanishi uchun zarur bo'li-



gan xususlarga ham to'xtalib o'tdik. Masalan, kulolchilik mahallalari, ziyoratgoh va agroturizm mavjud bo'lgan hududlardagi ijtimoiy-maishiy infraturizm (mehmonxona, hostel va uy-mehmonxonalar; transport; kafe, restoran va choyxonalar; do'kon va bozorlar; bank va bankomatlar; yo'l infraturizmasi; tez yordam xizmati va kasalxonalar...) holatlari o'rganildi, hamda turpaketlarga yuqoridagilar bo'yicha tavsiyalar kiritildi.

Bir haftalik taasurotlarimizdan xulosamiz shu bo'ldi, tuman sopol va chinni buyumlari, qandaki o'riklari, palovi va muqaddas ziyoratgohlari bilan "Rishton brendi"ni yaratmoqda.

Rishton umringiz davomida bir martagina bo'lsa ham ko'rishingiz kerak bo'lgan ko'hna manzillardan biridir.

SEVARA BAHODIROVA,

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi



1919-yil Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Pandigon qishlog'ida xizmatchi oilasida tavallud topgan. Mamadali Topvoldiyev dastlabki mehnat faoliyatini Rishton aloqa bo'limida pochta xizmatchisi lavozimida boshlaydi. Keyinchalik, kasbiga ishq tushib, Oqyer qishlog'dagi 1-MTS qoshidagi kursda o'qiydi. Armiyaga chaqirilguniga qadar kolxozda traktorlik bilan shug'ulanib, bo'sh vaqtda Rishtonlik rus, tojik, tatar millatiga mansub o'rtoqlari bilan qo'shni Bog'dod qishlog'idagi Serovo (hozirda Furqat temir yo'l stansiyasida oddiy ishchi lavozimida ishlab kun kechirgan. Ulg'ayib armiya safiga chaqirildi va xizmat yillarida ikkinchi jahon urushi boshlandi.

1941-yil noyabrda Mamadali quroldoshi desanchi Nikolay Pexota bilan fashistlar qo'lga o'tgan Borisova shahriga yashirincha kirib,

RISHTONLIK QAHRAMON MAMADALI TOPVOLDIYEV UY MUZEYI

nemislar lageridagi to'siqlarni kesib o'tib, u yerdan 146 nafar harbiy asirlarni ozod qiladi. Lager bo'yidagi Berezin daryosidan o'tishdagi janglardan eson-omon chiqqanlar o'rmondagi partizanlar harakatiga qo'shiladi.

1942-yilning fevralida o'zi ham Krugloe shahriga razvedkada bo'lganida dushman qo'lga tushadi. U yerda hiyla ishlatib soqchini o'ldirib qochadi. Posirovka, Dudakovich, Oglobli qishloqlarida qolib ketgan 13 nafar harbiyni topib partizanlar guruhini tuzadi. Keyinchalik, ular R.A.Kirpich rahbarligidagi partizanlarning "Chekist" nomli otryadiga qo'shiladi. Janglarning birida Mamadali Topvoldiyev Orshansk rayonidagi Lisuni qishlog'ida joylashgan "Volost" boshqarmasiga hujum uyushtirib, kulini ko'kka sovuradi. Vokonosovo qishlog'idagi gornizonga tunda bostirib kirib, otishma uyushtirishi natijasida vahimaga tushgan nemislar bir-biri bilan jangga kirib ketadi.



Jasur va qo'lga tushmas partizam M.Topvoldiyev "Kazbek" taxallusi ostida ish ko'rishi bilan faxrlanadi. Fashistlar uni "Osiyo arsloni" deb atashar edi. 1944-yil yozida Oliy bosh qo'mondonlik qaroriga binoan Belorussiyani batamom dushman iskanjasidan ozod qilish boshlandi. Butun front bo'ylab bir vaqtning o'zida dushman kuchlariga qaqshatqich zarbalar berilib, 1944-yil 3-iyul kuni Belorussiya to'laligicha ozod qilindi.

Partizanlar harakati Belorussiya shtabining buyrug'iga binoan, (29-iyun 1944-yil) M.Topvoldiyev 1-darajali "Vatan urushi partizani" medali bilan taqdirlandi.

1944-yilning 15-avgust kuni Oliy Sovet Prezidiumining farmoni e'lon qilinib, M.Topvoldiyevga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi. Qahramonimiz urushdan keyingi hayotida 1945-yilning 8-may kuni Germaniya yengilganligi haqidagi bitimga imzo chekadi, 1941-1945-yillardagi kechayu-kunduz davom etgan urushda fashizm ustidan g'alaba qozonilgach, M.Topvoldiyev demobilizatsiya qilinib, ona yurti O'zbekistonga, jonajon qishlog'i Pandigonga qahramon bo'lib qaytadi.





Topvoldi ota to'ng'ich o'g'li Mamadalini Donoxon ismli qizga uylantirib qo'yadi. Oylada Muborakxon, Ahmadali, Hamidjon, Mavludaxon, Hasanboy va Farhodjonlar dunyoga kelib voyaga yetadi. Urushdan so'ng umrining oxirigacha o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda kolxoz raisi sifatida faoliyat yuritadi. Raislik faoliyati davomida M.Topvoldiyev insonlar turmush tarzini yaxshilash, yoshlarni o'qish va izlanishlariga qulay sharoitlar yaratish uchun sadoqat bilan mehnat qildi, hamda aholining chin ma'noda qahromoniga aylanib, barchaning mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi. Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Pandigon qishlog'ida 1969-yilda hayotdan ko'z yumadi.

Bugungi kunda Rishton tumanida Mamadali Topvoldiyev nomidagi uy muzeyi faoliyat yuritmoqda. Muzeyda qahramonning fotosuratlarini, kiyimlari va medallari ko'rgazmaga qo'yilgan. Uy muzeyi avval Mamadali Topvoldiyev ishlagan mahalla fuqarolar yig'ini binosida joylashgan.

Amaliyotimiz davomida ushbu uy muzeyi va M.Topvoldiyev hayoti bilan ham yaqindan tanishdik.



**MUHAMMAD YUSUF
TURSUNBOYEV,**
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti talabasi



RISHTON XALQARO KULOLOCHILIK MARKAZI

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrda qabul qilingan farmonidan keyin hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlar uchun keng imkoniyatlar yaratila boshlandi. Mazkur farmonga muvofiq, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida hunarmandchilik markazlari qurilgan edi. Rishtonda esa Rishton xalqaro kulolchilik markazi ochildi.

Bu yerda 20 ta ikki qavatli kulollar xonadoni, Rishton tarixi muzeyi, bank xizmatlari markazi bunyod etilgan. Uylarning birinchi qavatida ustaxona va savdo do'koni joylashgan, ikkinchi qavatda hunarmand oilalari yashaydi.

Xonadonlarda 6 o'rinli mehmon uylari ham mavjud. Chet ellik sayyohlar bu yerda yashab, kulollarning ishi bilan tanishishlari mumkin.

Markaz foydalanishga topshirillishi bilan 250 ga yaqin ish o'rne yaratildi. Kulolchilik mahsulotlari BAA, Chexiya, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlarga eksport qilinmoqda.



ALISHER NAZIROV USTAXONASI VA UY MUZEYI

O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasining chinni, fayans va sopoldan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari yo'nalishi bo'yicha a'zosi Nazirov Alisher Nosirovich milliy va an'anaviy kulolchiligimizni rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mamlakatimizdagi ishbilarmon, tashabbuskor va taniqli ustalardan biridir. Respublikada birinchi bo'lib Rishton an'anaviy badiiy kulolchilik buyumlarini shakl tamoyillari bilan birga o'ziga xos naqshlari bilan bezatish uslubini o'z ijodida qo'llab kelmoqda. Hozirgacha hunarmand tomonidan 10 mingdan ortiq mualliflik asarlari yaratilgan. Shu bilan birgalikda unutilib ketilayotgan san'at yo'nalishlaridan biri bo'lgan "Ishqorli sir" san'atini hozirgi davrda ham keng qo'llanish asoslarini takomillashtirmoqda.

Shu yo'nalishda Rishtonda yagona "Usta-shogird" maktabida yoshlarga an'anaviy - moviy kulolchilik sirlarini o'rgatmoqda. Uning tashabbusi bilan o'zi istiqomat qilayotgan xonadonida 1997-yilda muzey-ustaxona tashkil qilib, badiiy va an'anaviy kulolchilik yo'nalishida o'z asarlarini mo'yqalam bilan naqshinkorlik uslubida ijod qilib keladi.

Alisher Nazirov ijodida millatimizning buyuk va qadimiy tarixi hamda xalq amaliy san'atining nodir nusxalarini asrab-avaylab avloddan-avlodga yetkazishda Respublika usta-kulollari orasida munosib o'ringa ega. Shuningdek, milliy hunarmandchilik asosida yaratilgan "Sarshuyak", "Guldon", "Me-vadon", "Dastshu", "Shokosa", "Dugusha", "Murg'oba" kabi noyob mahsulotlar ustaning ijod jarayonida muhim o'rin tutadi.



Alisher Nazirov ustaxonasidan tayyorlangan videoni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

TOHIRJON XAYDAROV USTAXONASI VA UY MUZEYI



Rishton tumani Saroy MFYda “Do‘stlik” ordeni sohibi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda “Hunarmandlar” uyushmasi a‘zosi Tohirjon Xaydarov ustaxona va uy muzey tashkil etgan. Tohirjon Xaydarov igna bilan miniatyura chizishni 30 yil oldin kashf etgan. Bu uslub kulolchilikda noan‘anaviy uslub deyiladi.

U bu haqida shunday deydi: “Kulollar, rassomlar yillar davomida asarlar yaratib taniladi. Masalan, bir yilda minglab rassom oliygozni bitiryapti, lekin har yili hech bitta rassom tanilib chiqmayapti-ku? Qachon hunarmand mashhur bo‘ladi? Qachonki yangilik yaratsa. Men ham o‘zimga xos uslubni yaratdim. Ignada miniatyura chizishni boshladim”.



Tohirjon Haydarov uy muzeyidan tayyorlangan reportajni ko‘rish uchun QR kodni skaner qiling.

ABDULLAYEV ABDUSATTOR,

Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti talabasi



Usta kulol Sharofiddin Yusupov

1950-60-yillarda O'zbekistonning ko'pgina shaharlari – Samarqand, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Rishton, Qo'qon, Jizzax, Xiva, Urganch bozorlaridagi sopol idishlar sotiladigan oddiy do'konlar kichik kulolchilik muzeylarini eslatardi. Bir necha yildan so'ng vaziyat o'zgardi, an'anaviy kulolchilik nafasi ufurib turgan ustaxonalar yo'qola boshladi. An'anaviy kulolchilik mahsulotlarini realizatsiya qilish doirasi torayibgina qolmay, usta-

Mana shunday jonkuyar, quvnoq, xushchaqchaq, ayni paytda dono, sharqona uslubda ijod qiluvchi ustodlardan biri – Sharofiddin Yusupov.

larning soni ham jiddiy kamayib ketdi.

XX asr o'rtalarida ming yillik tarixga ega Farg'ona ustalarining boshiga shunday qismat tushdi. Ko'plab taniqli ustalar vafot etdi, boshqalari ham bu hunarni tark eta boshladilar. Lekin nafaqat o'z hunarini va ko'p asrlik an'analarga sodiq qolgan, balki ularni asrab-avaylash va rivojlantirish uchun ko'p mehnat qilganlar ham bor edi.



Sharofiddin Isomiddinovich Yusupov 1945-yilning 29-aprelida (hozirgi Rishton shahrida) tavallud topgan. Sharofiddin ustoz kulol, sulola davomchisi, zamonaviy Rishton kulolchilik maktabining yirik vakili.


O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi (1997), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1991). Yoshligidan otasi usta Isomiddin Yusupov (1884–1959) bilan yonma-yon ishlab, 1959-yil otasining vafotidan so'ng, otasi bilan birga o'qigan Hotamboyl Polvonovga shogird tushadi. Rishtonlik usta Musa va G'urumsaroylik usta Hakimdan ham hunar sirlarini o'rgangan; ayniqsa, usta Ibrohim Komilovdan Rishton kulolchilik maktabiga xos bo'lgan tabiiy xom-ashyodan ishqorli sir tayyorlashni puxta egallagan. Usta bolaligini eslar ekan, 1950-yilning o'rtalarida uning uyida kata ustaxona bo'lib, 40 ga yaqin hunarmand va otasining shogirdlari mehnat qilganini aytadi.



Sharofiddin Yusupov

1963-yildan Rishton keramika zavodida kulol, usta (1978–80 yillarda bosh rassom) bo'lib ishlagan. 1968-yilda u anor tasviri tushirilgan bir qancha mahsulot ishlab chiqaradi, ular Vengriyadagi ko'rgazmaga yuboriladi va u yerda yuqori baholanadi. 1974-78-yillarda Qo'qon shahrida Ishqorli sirni sanoatga tatbiq etish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda qatnashgan.

Sharofiddin Yusupov Rishton kulolchilik maktabi an'analarini ijodiy o'zlashtirdi va rivojlantirdi, uni yangi mujassamotlar, ranglar uyg'unligi, ramziy belgilar va boshqa xususiyatlar bilan boyitdi; u yaratgan lagan, ko'za, kosa, shohkosa va boshqa sopol buyumlarda "chorbarg", "bodomgul", "anorgul" va shu kabi tasvirlarni oq (sut rang) zaminda yashilmoviy, jigarrang, binafsha rang, yashil-ko'k uyg'unligidagi rang koloritini qo'llaydi. U yaratgan sirkori bezaklar zamona-viy me'morlikda keng qo'llanmoqda.





Bugungi kunda Sharofiddin Yusupovni Rishton kulolchilik maktabi oqsoqoli deb atashadi, garchi bu maqom uning jo'shqin va rango-rang turmush tarziga unchalik to'g'ri kelmasa ham.

Sharofiddin Yusupov Rishton shahridagi kulolchilik maktabining yettinchi vakili. Uning 50 yildan ortiq mehnat faoliyati davomida 20 dan ortiq mamlakatda ko'rgazmalar tashkil etgan.



BAHODIROVA SEVARA, SHIRINOV MA'RUF
SHUKURXO'JAYEV NIZOMIDDIN, XABIBULLAYEVA SADOQAT,
Universitet yoshlar kengashi faollari



Usta kulol Sharofiddin Yusupov
bilan suhbatni ko'rish uchun
QR kodni skaner qiling.

Turk dunyosi nigohi Rishtonda: An'anaviy "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi forumi" o'z ishini boshladi



Farg'ona viloyatining Rishton tumanida an'anaviy "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" forumi va uning doirasida "Kulollar sayli" milliy kulolchilik mahsulotlari ko'rgazmasavdosi ochildi.

Forumda yurtimizdagi barcha kulolchilik maktablarining 150 nafardan ortiq usta kulollari, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan sulola vakillari va xalq ustalarining mahsulotlari ko'rgazmasi hamda mahorat darslari tashkil qilindi.

Tadbirda Rossiya, Polsha, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston, Isroil va Turkiya kabi xorijiy mamlakatlardan soha mutaxassislari va olimlar taklif qilingan.



Rishtondagi usta Ibrohimjon Komilov, Bobojon Nishonov, Hakimjon Sattorov, Rustamjon Usmonov, Alisher Nazirov, Sharofiddin Yusupov, Tohirjon Haydarov singari mashhur kulollar yaratgan mahsulotlar hali-hanuz barchani hayratga solib keladi. An'anaviy "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" forumi va uning doirasidagi Kulollar sayli, aynan, Rishton tumanida tashkil etilgani bejiz emas.

Bugungi kunda tumanda kulol ustalar 2435, ularning shogirdlari soni 6867 nafarga yetgan.



Forum doirasida "Rishton kulolchiligi: Kecha, bugun, ertaga" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan nashr etilgan "An'anaviy Rishton kulolchiligi" kitobi taqdimoti ham o'tkazildi.

Forumning ikkinchi kunida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun matbuot anjumani tashkillashtirildi. Shuningdek, yosh kulollar o'rtasida "Mahorat saboqlari" tanlovi o'tkazildi.

Forum yakunida kulollar va xorijiy ishtirokchilarning Qo'qon shahridagi Hunarmandchilik markazi va Xudoyorxon o'rdasiga tashrifi uyushtirildi.

ILHOM MUSULMONOV,

Shu mavzu bo'yicha videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.



Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

STRAUS FARM



Farg'ona viloyati Rishton tumanida 2015-yildan boshlab Afrika tuyaqushlari olib kelib ko'paytirila boshlandi. Ulardan biri "Straus Farm" tuyaqush fermasidir.

Tuyaqush fermasiga 2016-yilda asos solingan. Tuyaqushlar Afrikadan olib kelingan. Hozirda bu fermada umumiy 80 ta tuyaqush parvarish qilib kelinmoqda.

Tuyaqushlar oila bo'lib yashaydi. Bitta tuyaqush oilasida bitta erkak va ikkita ayol tuyaqush bo'ladi. Tuyaqushning yaxshi tomoni shundaki, u deyarli 100% chiqindsiz qushdir. Tuyaqushning hamma narsasini ishlatishimiz mumkin: go'sht, teri, suyaklar, yog', tuklar, tirnoqlar, tuxum:

Tuyaqush terisidan oyoq kiyimlar tayyorlanadi. Bu oyoq kiyimlar juda ham chiroyli, qolaversa inson sog'ligiga juda ham foydali bo'ladi.

Tuyaqush go'ngi tuproqni to'g'ridan-to'g'ri urug'lantirish uchun javob beradi, chunki bu qushda o't pufagi yo'q, shuning uchun go'ngda tuproqni yoqib yuboradigan kislotalar yo'q. Xuddi shu sababga ko'ra, tuyaqushlar juda yumshoq go'shtga ega.





Bundan tashqari ushbu fermada tuyaqush yog'idan maxsus ayollar va bolalar uchun sovunlar tayyorlashadi. Bu sovun qurib qolgan teriga juda ham foydali hisoblanadi.

Tuyaqushlarning tirnoqlari uzunligi 10 smga yetadi, uning tirnoqlaridan olmoslarni silliqlash va dekorativ maqsadlarda ishlatiladi.

Fermer xo'jaligi faoliyati o'rganilganda bir qator muammolar ham o'rganildi: Fermer xo'jaligi dasht hududida joylashganligi sababli bu yerda suv muammosi bor. Tuyaqushlarga maxsus qazilgan hovuzlarda saqlanadigan suv beriladi. Bu yerdagi suv tez buziladi va turli xil zamburug'lar paydo bo'ladi. Bu esa tuyaqushlar sog'ligi uchun nojo'ya ta'sir etib kelmoqda.



Tuyaqush go'shti deyarli xolesterinsiz va oqsil tufayli kaloriya miqdori yuqori bo'lsa-da, baribir parhez taom hisoblanadi. Tuyaqush suyaklaridan maydalangan suyak uni tayyorlanadi.

Tuyaqush tuxumlari oziq-ovqat sifatida ishlatiladi. Bitta tuyaqush tuxumi og'irligi o'rtacha hisobda 600-800 gr oralig'ida bo'ladi. Ba'zan tuxum og'irligi 1 kgdan ham oshadi. Tuyaqush tuxumining qobiq qismidan dekorativ mahsulotlar tayyorlash mumkin.

Tuyaqush yog'i kosmetologiyada ham qo'llaniladi. Tuyaqush yog'i gemoroy, oyoq og'rig'i, bel og'rig'iga, umuman olganda, barcha suyak kasalliklariga davo hisoblanadi.

Rishton tumanida boshqa ko'plab sohalar qatori tuyaqushchilik ham rivojlanmoqda. Aniqlangan muammolarning bartaraf etilishi bu sohada yana ham yaxshilanishiga zamin yaratadi.

G'ULOMJON ARIFJANOV,
Sharq filologiyasi va
tarjimashunoslik fakulteti
dekan muovini



BOYSUN

The title 'BOYSUN' is rendered in a large, bold, serif font. The letters are filled with a vibrant, multi-colored pattern of red, orange, and yellow, reminiscent of traditional Mexican folk art or textiles. Above the letters, a stylized sun with bright yellow rays is positioned on the left, and a range of green, jagged mountains is positioned on the right. The entire graphic is set against a clear blue sky.



“BIBISHIRIN” ZIYORATGOHI

“Bibishirin” maqbarasi - Boysun tumanidagi muqaddas go'shalardan biri. Qabristonda Bibishirin maqbarasi qad ko'targan. Maqbara balandligi 8 metr, maxsus g'isht va ganch bilan bezatilgan. Maqbaraning old qismi peshayvonli bo'lib, gumbazsimon shaklda yopilgan. Ziyoratgoh yonida Domla Kulobiya uning farzandlari tomonidan maqbara qurilgan.

Rivoyat qilishlaricha, Bibishirin Omonxonada abadiy makon topgan buyuk sahibkaromat avliyo Sulton Vali hazratlarining tug'ishgan singillari Bibrayhon bo'ladi. Bibishirin bibimiz o'z zamonida haq muomalasi va ma'rifat bobida benazir bo'lgan. Naql qilishlaricha, Bibishirin bibimiz tug'ilgan kechasi Haq Taolodan nido kelib, "Seri shundoq bir martabaga yetkazayki, osmondagi farishtadar senga havas qilsin", degak ekan. Kunduzi ro'za tutar, kechasi tongga qadar namoz bilan mashg'ul bo'lar ekan. Ziyoratgoh el ichida mashxur. Bibishirin nomi bilan yuritib kelinadi. Bibishirin manzilgohi har doim gavjum.





Sharqshunoslik jamoasi "Bibishirin" ziyoratgohiga tashrifi davomida nafaqat ziyorat qilishdi balki, ushbu ziyoratgohning tarixi haqida ma'lumotlar to'plashdi.

Sovet hokimiyatining diniy e'tiqodimizga nisbatan olib borgan zulmkor siyosatidan eson-omon bizgacha yetib kelgan Bibishirin xonaqohi 1986 yilda ayrim g'alamislar tomonidan buzib tashlangandi. 1988 yilda asli Pasurxi qishlog'idan bo'lgan, hozirda Bibishirin mozorotidan abadiy makon topgan marhum Hamid Karimov hamda Qorabo'yin qishlog'idan aka-uka Abdullayevlarning harakati bilan Bibishirin xonaqohi qayta tiklangan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, 2002 va 2007-yillarda qayta ta'mirlandi, guzar va obod maskanga aylantirildi. Surxon vohasida yagona ayol avliyo Bibishirin maskanini yanada obod qilishga tuman hokim-

ligi ko'magida ezgu ishlar amalga oshirildi.

Bibishirin ziyoratgohini haftaning chorshanba kunlarida ziyorat qiladilar. Bu muborak maskan kishilarni ezgulikka, diniy va tarbiyaviy yuksaklikka chorlaydi, rahmdil, mehr-muruvvatli, halol va pok bo'lishga undaydi, o'tmishda o'tgan donishmand, avliyolarga bo'lgan e'tiqodimizni yanada oshiradi.



"Bibishirin" ziyoratgohi bo'yicha tayyorlangan videorolikni tomosha qilish uchun QR kodni skaner qiling.

SALOHIDDIN SUYUNOV,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Universitet yoshlar Kengashi a'zosi

“XO‘JA QO‘CHQOR OTA” ZIYORATGOHI



“Xo‘jaqo‘chqor ota” qadamjosi Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgandir. Padang qishlog‘idan o‘tib, tog‘ tomon yo‘lingizda davom etsangiz, ko‘z oldingizga salobatli Boysun tog‘lari ko‘rinadi. O‘ng tomonda Qoplondara, uzoqda yolg‘iz archa, Zovboshiga boradigan yo‘l, chap dasht dala, hali archali o‘rmonga yetish uchun yurish kerak. Xo‘jaqo‘chqor ota atrofidan 11-12 asrlarga tegishli temir buyumlari va sopol bo‘laklari topilgan. Qadimshunos olim T. Annaev bu yodgorlik XVI asrda barpo etilganligini ta’kidlaydi.



Xo‘jaqo‘chqor ota haqida bir necha rivoyatlar bor. Rivoyatlarning birida shunday hikoya qilinadi. Qadimda uch aka-uka: Xo‘jaqo‘chqor ota, Boyqo‘chqor ota, Shoyqo‘chqor ota shu yerni makon qilib yashay boshlashgan. Ularning boy-badavlat ekanligidan xabardor besh nafar niyati buzuvchi bosqinchi keladi-da, ulardan tilla so‘raydi. Shunda bularning qora niyatini bilgan Xo‘jaqo‘chqor ota shunday deydi:

“

- Ikkita shartim bor, shunga rozi bo‘lsanglar, tillaning joyini keyin aytaman. Birinchi shartim: ikki rakat namoz o‘qish, ikkinchisi: nevaramga tegmaysizlar.

”

Bosqinchilar rozi bo‘lishadi. Xo‘jaqo‘chqor ota hassasini ikki marta yerga urgan ekan, suv chiqibdi. Suvga yuz qo‘lini yuvib, ikkala buloqdan ham bir hovuchdan suv ichibdi va Yaratganga shukrona aytibdi. Ikki rakat namoz o‘qibdi-da,

o'ngga va chapga salom berib, sekin ovozda pichirlab duo o'qiy boshlabdi. Shu payt ro'paradagi tepalik yorilib, ikkiga ajralibdi. Xo'jaqo'chqor ota shu g'orga kirishlari bilan g'or yopilibdi va ko'zdan g'oyib bo'libdi. Ko'z o'nglarida sodir bo'lgan bu sir-sinoatdan o'takasi yorilgan bosqinchilar orqa - oldlariga qaramay qochib ketishibdi. Naql qilishlaricha, duoyi badga duchor bo'lgan bosqinchilar dunyodan befarzand o'tishgan ekan.

Mustaqillik tufayli ma'naviy boyliklarimiz durdonalariga, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarga, yurtparvarlik milliy qadriyatlarga hurmat-e'tibor kuchaydi. Tuman hokimligining sa'y-harakati tufayli Xo'jaqo'chqor ota maskanida qurilish va ta'mirlash ishlari olib borildi. 2007-yilda milliy a'nanalarga xos 8 metrlik gumbazsimon xonaqoh pishiq g'isht ganchlab qurildi. Qadamjoga boriladigan tog' yo'li kengaytirilib, qayta asfalt qilindi. Surxon vohasi va uzoq viloyatlardan mehnatkashlar tabiatning bu so'lim go'shasida dam olishga, tog' va archali o'rmonda sayohat qilishga keladilar.



Ayniqsa, haftaning chorshanba kuni ziyoratchilarning soni ko'payadi. Eng muhimi, bu maskan Boysun tuman markazidan bor - yo'g'i 13 km masofada. Sekin yurgan transport ham 20 daqiqada yetib boradi. Tekis yo'l faqat qish faslini hisobga olmaganda, boshqa fasllarda muammo tug'dirmaydi. Odamlarning tabiatga intilishlari, o'tgan azizlarni xotirlab, e'zozlashlari, ona vatanni, poklikni, ma'rifatni, iymonni ulug'lash ifodasidir. Chunki o'tgan padari buzrukvorlarimiz hayoti, so'zlari, pand-nasihatlari va ezgu amallari avlodlarga ibrat, saboqdir.



NIYAT BULOG'I

Xo'jaqo'chqor ota qadamjosida bir-biridan 5-6 metr uzoqlikda ikkita buloq bor. Ulardan saraton issig'ida ham muzday toza, ma'danli suv chiqib turibdi. Buloqlar suvi ajoyib xususiyatlarga ega: tarkibi bir-biriga o'xshamaydi. Buloqlardan birining suvi qaynatilganda tarkibi o'zgaradi, ya'ni bir oz achchiq bo'ladi. Shu sababli choy yoki ovqatga kam ishlatiladi. Ikkinchisi esa qaynatilsa ham tarkibi o'zgarmaydi, choy, ovqatga ishlatilganda ta'mi o'zgarmaydi. Buloqlar haqida qadamjo shayxi Chori Normurodov shunday dedi:

“

Ko'rib turganingiz, chashmalar nomi Niyat buloqlari deb ataladi. Kimki toza vijdon bilan hayot tarzi ezgulik ishlarini to'g'ri bo'llishini niyat qilib, suvni ichayotganda qilgan niyat-orzulariga aytishadi. Bemorlar dardlaridan forig' bo'llishadi, befarzandlar farzandli bo'ladi. Bu tabarruk oshyonga bir kelganlar, albatta yana keladilar. Ular niyatlariga erishganliklari, bemorlar sog'aygan-liklarini, ko'p yillab tirnoqqa zor bo'lganlar farzandli bo'lganliklarini aytganlar.

”

Xo'jaqo'chqor ota hududidagi eng diqqatga sazovor tabiat manzarasi qadamjodan 100 metrlar yuqoridagi tog'dan shovullab tushayotgan sharsharadir. Sharshara daryo yoki soy o'zanining tik qismidan pastga otilib tushadi. Xo'jaqo'chqor ota sharsharasi baland tog'dan pastga shiddat bilan oqib tushayotgan besh pog'onadan iborat. Yuqoridagi pog'onalar balandda tik qoyalarda bo'lgani sababli har kim ham chiqa olmaydi. Oxirgi pog'ona 15 metr balandlikdan pastga tushayapti. Suv uzoq yillar mobaynida toshni o'yib, suv oqib tushishiga mos nov va pastda tosh kamar hosil qilgan. Saratonda sharshara suvida cho'milish, sovuq dush qabul qilish ayni muddao.

BAXODIR BOZOROV,
Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti talabasi



MAGNIT MAYDONI

Boysun - tilsimotlar maskani deya takidlashgan edi. Biz esa ushbu fikr qanchalik haqiqat ekanligini tekshirishni boshlagan edik va Boysunga kelishimiz bilanoq uning bir mo'jizasiga guvoh bo'ldik.

Padang qishlog'idan 8km narida joylashgan magnitli tog' haqida eshitganmisiz? Hali hamon olimlar tomonidan muhokama qilinib kelayotgan g'ayritabiiy makon - Magnit maydoni Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan. Ushbu hudud xaritalarda $38^{\circ}16'55.55''$ shimoliy kenglik, $67^{\circ}14'52.69''$ sharqiy uzunlikda belgilangan.

Mahalliy aholi bu yerni "magnitli joy" deb atashadi. Bir qaraganda, balandlikka chiqilayotgandek ko'rinadigan bu qiyalikda tezlik uzatmasi neytral holatga qo'yilsa va tormoz bosilmasa, balandlikdan tushib kelayotgan mashina yana orqaga ketadi. Yo'lga suv quyilsa - u ham tepaga qarab oqadi.



Magnit maydoni
bo'yicha tayyorlangan
videorolikni tomosha
qilish uchun QR kodni
skaner qiling.

SALOHIDDIN SUYUNOV,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi



PADANG QISHLOG'I DAM OLIISH MASKANLARI

Padang - Boysun qishloq fuqarolari yig'ini hududidagi qishloq. Tuman markazidan 5 km, eng yaqin temir yo'l bekati Boysundan 15 km masofada. Aholisi asosan chorvachilik, lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Qishloqda umumiy o'rta ta'lim maktabi, savdo do'konlari, moy juvoz va tegirmon joylashgan.

Surxon vohasining Boysun tumani Padang qishlog'i o'z tabiati va tarixiy joylari bilan mashxur. Bugungi kunga kelib, Padangga tashrif buyuruvchilarga dam olish maskani hostellar va o'tovlar qad rostlagan. O'tov ochiq maydonda gumbaz shaklida tiklanadigan ko'chma turar joy. O'tov nomi qadimgi turkiy tilda "olov yoq" ma'nosini anglatadi. O'tovlar milliylikdan kelib chiqib o'z hunarmandchilik buyumlari ya'ni kashtalar va sandal bilan bezatilgan va tashrif buyuruvchilarga qulay sharoitlar mavjud.





Insoniyatning eng qadimgi manzilgohlaridan biri bo'lgan Boysun sayyohlik salohiyati hali ishga solinmagan turistik manzillarga ega hudud. Bu yerlarda zamonaviy mehmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish shahobchalari, deltoplan maydonchalari barpo etish, tog' sporti, dor yo'llari singari turistik maskanlar tashkil etish hududga yanada ko'proq sayyohlarni jalb etishga xizmat qiladi.

Tumandagi "Feruzbek asl chorvasi" fermer

xo'jaligi tomonidan Boysun tog' yonbag'rlarida Xo'jaqo'chqor ota ziyoratgohi atrofida 150 gektarga yaqin maydonda turizm zonasi barpo etilmoqda. Hozirgacha agro, eko va ziyorat turizm shaydolari uchun 3ta zamonaviy kottej, 3ta o'tov va yengil konstruksiyali konteyner tipidagi turistlarni qabul qilishga mo'ljallangan yotoq joy, yozgi basseyn, serjilo tabiat qo'ynida dildan suhbat qurib, dam olish uchun tabiiy supalar, tadbirlarga mo'ljallangan sahna barpo etilgan.



SAIDKOMIL BAXODIROV,
Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va
turizm fakulteti talabasi



FERUZA OPA HUNARMANDCHILIK MARKAZI

Feruza Holiqova 1985-yil Boysun tumani Gaza mahallasida tug'ilgan. 22 yildan buyon kasanachilik bilan shug'ullanib keladi. Feruza opa 3-avlod bo'lib, hozirda o'zining barcha bilganlarini yosh avlodga o'rgatib kelmoqda, 30 dan ortiq o'quvchilari bor. Feruza opa bugunga qadar 100 dan ortiq eksponatlar jamlagan.



Turizm faoliyatini ham yo'lga qo'ygan bo'lib, Qaraqalpoq Respublikasi, Shvetsariya, Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Xorazm, Buxoro viloyatlari bilan ham hamkorlikni davom ettirmoqda. Gazalik Feruza Xoliqova ham 15 yoshidan momolari hamda onasidan kashtachilik sirlarini o'rganib, bugungi kunda o'zi yuzdan ziyod shogirdlarga ustozlik qiladi.



Feruza opa hunarmandchilik markazi bo'yicha tayyorlangan videorolikni tomosha qilish uchun QR kodni skaner qiling.



AZAMAT XAYRULLAYEV,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

“KAMARI AZIZ” ZIYORATGOHI



“Hazrati Kamari Aziz” ziyoratgohi – O‘zbekistondagi madaniy me‘ros ob‘ekti va diqqatga sazovor joy. Surxondaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida “Vaqf” xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda moddiy-madaniy merosning ko‘chmas mulk ob‘ektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan - davlat muhofazasiga olingan.



ELBEK ELMURODOV,
Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti talabasi

“XO‘JAMAYXONA” ZIYORATGOHI

Xo‘jamayxona katta darada joylashgan bo‘lib, suvi Machaydaryoga borib quyiladi. Xo‘jamayxonani birinchi bor ko‘rgan kishi beixtiyor chuqur xayolga botadi. Asrlar osha ana shu suvning bir maromida oqishi kishini ajablantiradi. Xo‘jamayxonani minglab qariyalar, sarkardalar, din peshvolari, shayx va hojilar kelib, ziyorat qilib ketgan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Sohibqiron Amir Temur ham ushbu ziyoratgohga kelib, ziyorat qilgan. Xo‘jamayxonada Boysundan borishda chap tomonda Xazrati Badovuddin Balogardon chillaga o‘tirgan joylari, o‘ng tomonida esa Xazrati Mil Kulol chillada o‘tirgan joylari belgisi bor. Xo‘jamayxona mozarining atrofi qalin daraxtlar bilan o‘ralgan. Suv zovning tubidan chiqib, aylanib 3 ta tog‘ zinasiga oqali daryoga qo‘shiladi. Tabiiy paydo bo‘lgan bu 40 metrli zinalar xuddi maxsus yasalgan zinalarga o‘xshaydi.

Lekin, ming afsuski, hozirgi vaqtda bu zinalar qattiq, shikastlangan. Yaponiyalik olimlarning yozishicha, Xo‘jamayxona suvi Osiyo qitasidagi eng toza, filtrlangan, shifobaxsh suv bo‘lib, inson a‘zosiga foydali bo‘lgan temir va oltin moddalari mavjud ekan. Xo‘jamayxona deb nomlangan bu manzil o‘z tabiiy manzarasi, xush havosi, suvining tiniq, totli va shifobaxshligi bilan kishini hayratga soladi.




Xo‘jamayxona bulog‘i haqidagi videorolikni ko‘rish uchun QR kodni skaner qiling.





Keksalarning aytishicha, Xo'jamayxona suvi bilan Machaydaryo suvi o'rtasida bog'liqlik bor ekan. Negaki, Machaydaryo suvi toshsa, Xo'jamayxona suvi ham toshar, kamaysa, kamayar ekan. Irkutsklik g'orshunoslar bu yerda ancha fursat turib, Xo'jamayxonaning ajib jumboqlari haqida bosh qotirdilar. G'avvos kiyimlarini kiyib, Xo'jamayxona yonida joylashgan va o'sha yerdan suv oqib kelayotgan g'orga kirib, qariyb 2 km masofa ichkari yurib bordilar. Ularning aytishlariga qaraganda, g'or og'zida katta ko'l suvlari mavjud bo'lib, ichkariga qarab borgan sayin bu ko'llar o'rniga shiddat bilan g'uvullab oqayotgan suvga duch kelish mumkin. Yana shuni aytish lozimki, g'or tubi ko'rinmaydi, taxminan 10 km dan ortiqroq ichkariga darab cho'zilgan. Xo'jamayxona ota Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning amakivachchalari va kuyovlari bo'lmish hazrati Alining ajdodlaridan bo'lishi mumkinligi haqida fikrlar bor. Xo'jamayxona haqidagi tarixiy manbalar bizgacha yetib kelgan emas.



“Teshiktosh” g‘ori

“Teshiktosh” g‘ori Sherobod-daryoning eng go‘zal daralaridan birida yuqori Machay qishlog‘i yaqinida joylashgan. Aslida, teshiktosh bir emas, balki bir nechta g‘orlardan iborat, ammo sayyohlar orasida, asosan, qabr topilgan g‘or mashhur. Qazishmalar davomida arxeologlar umumiy qalinligi 1,5 metr bo‘lgan 5 ta madaniy qatlamni aniqladilar. Qatlamlar loy oraliqlar bilan ajratilgan. Ya‘ni, g‘orda ancha uzoq vaqt davomida 5 marta yashalgan. Arxeologlar g‘orni qayta-qayta suv bosganini ham aniqladilar. Qatlamlardan buyumlar va asboblari (qirg‘ich, keski, tosh tig‘, bolta va boshqalar) topilgan.

G‘orning vertikal devorlari jarlik to‘shagidan yuqoriga ko‘tarilib, joylarda balandligi 50 metrga yetadi. Atrofida Archi tog‘lari joylashgan. G‘orning o‘zi oval shaklda, kengligi taxminan 20 metr va balandligi 7 metrdan biroz kamroq bo‘lgan. G‘or kichik bo‘lsa ham, ichi qorong‘i va sovuq. Quyosh nurlarining chuqur kirib borishi cheklanganligi sababli, asosan g‘orning old qismi va uning yonidagi maydoncha bo‘lib, u yerda olov izlari va hayvonlarning suyaklari topilgan.

Teshiktosh g‘origa ko‘plab mahalliy hamda chet ellik sayyohlar tashrif buyurishadi va g‘orni o‘rganishadi.



Teshiktosh g‘ori haqidagi videorolikni ko‘rish uchun QR kodni skaner qiling.



SALOHIDDIN SUYUNOV,
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Universitet yoshlar Kengashi a‘zosi

“Qo‘rg‘onzol” qal‘asi

Miloddan avvalgi Makedoniyalik Iskandar dastlab Baqtriyani bo‘ysundirdi, so‘ngra So‘g‘dga qarshi yurish qildi. So‘g‘dni bo‘ysundirish “So‘g‘d qo‘zg‘oloni” deb atalgan qo‘zg‘olon tufayli qiyinlashdi, biroq miloddan avvalgi 327-yilning yozida muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Qal‘ani qo‘zg‘olon rahbari Spitamen vafotidan keyin O‘rta Osiyodagi bu yurish paytida makedoniyaliklar miloddan avvalgi 328-yilda qurgan. Eramizdan avvalgi Qo‘rg‘onzol qal‘asi hozirgi Boysun yaqinidagi qoyali platoda. Majmua faqat 2000-yillarda Germaniya arxeologiya instituti (GAI) arxeologlari ishtirokida qayta kashf etilgan.

Ichki diametri qariyb 30 metr bo‘lgan doira shaklidagi qal‘a to‘rt metr qalinlikdagi g‘isht devor bilan

o‘ralgan, oltita qo‘riqchi minorasi bor edi. Devor ichidan bir nechta turar-joylar va Iskandar davriga oid ko‘plab kundalik buyumlar topilgan. Bunga idish-tovoq, shisha va taomlarni saqlashda foydalanilgan idishlar kiradi. 2009-yilda GAI arxeologlari loydan yasalgan vannani topdilar, bu O‘rta Osiyoda birinchi bunday topilma hisoblanadi. Bugungi kunda Qo‘rg‘onzol arxeologik yodgorligiga katta ahamiyat berilmoqda, chunki u Iskandarning O‘rta Osiyoga yurishi haqida saqlanib qolgan kam sonli guvohlardan biri bo‘lib, birinchi navbatda, bosqinchilarning turmush tarzi va makedoniyaliklar o‘rtasidagi madaniy almashinuv haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.



Boysun hunarmandlar markazi



Boysun tumani o'zining hunarmandlari bilan dunyoga dovrug'i keng yoyilgan. Bunga ko'pgina chet ellik turistlarni "Boysun bahori" festivaliga aynan hunarmandchilik buyumlarini ko'rish uchun tashrif buyurishini misol qilib keltira olamiz. Ana shunday qo'li gul hunarmandlarning ish faoliyatini rivojlantirish uchun YUNESKO tomonidan ularga hunarmandchilik markazi topshirilgan. Bu markazda tumandagi ko'pgina hunarmandlar faoliyat yuritib kelmoqda.



Hunarmandlar markazida hunarmandlar, nafaqat kashta va janda to'qish bilan shug'ullanadi, balki bu markazda qadimgi buyumlar saqlanadigan muzey ham mavjud. Bu muzeyda tarixiy ust va oyoq kiyimlar, qo'lyozmalar va yana ko'plab turli xil qadimiy buyumlarni ko'rishingiz mumkin.



Boysun hunarmandchilik markazi haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

SAYROB CHINORLARI

Chorchinor - Boysun tumani markazidan 3 km shimolda joylashgan oromgoh, baʼzan Chinor deb ham ataladi. Boysundan 25 km gʻarbda Sayrob qishlogʻida ikkita ulkan chinor mavjud boʻlib, bu joy ham oromgohdir. Boysunning bu ikki oromgohi sayohatchilar orasida mashhur boʻlib, uni dunyoning deyarli barcha joyidan mehmonlar kelib ziyorat qilishadi. Bunday ulkan chinorlardan yana biri Boysunning Koʻchkak qishlogʻida ham bor. Odamlar Chorchinorni ziyoratgohga aylantirganiga bir necha asr boʻldi. Chorchinordan 500 metr shimoli-sharqda Hazrat Surx Pushning ziyoratgohi mavjud. Ziyoratgoh obodonlashtirilib, Chorchinor tagidan 1902-yilda hashar yoʻli bilan egri ariq qaziladi. Ilk oʻrta asrlarda Chorchinor tagida buloq mavjud boʻlgan. Aslida Chorchinor ziyoratgohi tarixi shunday, Rivoyat qilishlaricha, arab lashkarboshilaridan biri (ayrim manbalarda shayh Vali) Xoʻja Surx Push (asl ismi Abdujuona Ibn Alham) Abu Muslim davrida (750-755-yillar) Boysun hukmdorlaridan biri boʻladi va hozirda qurib yoʻqolib ketgan chashmaning atrofida toʻrt tup chinor daraxti ekadi. U taxminan 810-815 yillar atrofida vafot etgan.





Jasadi o'zi yashagan Qiziltepadagi uy ichiga qo'yilgan, shuning uchun ayrim manbalarda bu zotni "Dudboniy ko'hi surxiy" deb ham atashgan. Chinorning shimolida qadimiy qabris-ton bor. Tarixiy manba-larda, xususan, XIX asrning 60-yillarida bu yerda bo'lgan rus sayyohi A.P.Fedchenkoning ma'lumotlariga qaraganda, qabristonga Boysun begi va hokimlarining jasadlari qo'yilgan.

Sayrob qishlog'idagi chinor ham to'rtta bo'lgan, 90 yoshli Kenja bobo Mengliyevning aytishicha,

1926-yilda chashmaning yuqorisida o'sib turgan chinor o'z-o'zidan yonib ketgan va u bunga guvoh bo'lgan. Bu yerda o'rtacha bir hovuzdek keladigan chashmadan necha asrlardan beri suv chiqib turadi.

Chashmadagi baliqlarni ovlash man etilgan. Uning yonida masjid bo'lgan, keyinchalik vayron qilingan. Hozirda bu ulkan chinor o'sib turibdi.

Uning yonida 1972-yilda ekilgan 10 dan ortiq yosh chinor daraxti bor.

Chinorlar yillar o'tishi bilan o'z ildizlaridan, shu-ningdek, qo'shimcha nihol ekish natijasida ko'paygan. Chinorlarning eng keksasi 850 yoshda, uning balandligi 26, yo'g'onligi 15,6 metr. Bu daraxtning kavagi katta bir uyning xonasini eslatadi. Chinorning yer bilan tutash tanasiga eshik o'rnatilib, ichki xonasida 12-16 kishi sig'adigan savod chiqarish maktabi tashkil etilgan, mahalliy aholi ushbu chinorni "maktab chinor" deb ataydi.

Sovet hokimiyatining dastlabki davrida chinorning bag'rida eski maktab bo'lib, 1920-yilda Qizil armiya kavaleriyasi diviziyasi shtabi, keyinchalik yangi maktab, kutubxona joylashgan. Uning diametri 30 metr keladigan shoxlarining soyasida yo'lovchilar dam olishadi.

Tabiatning bu mo'jizasi hozirgi vaqtda davlat muhofazasiga olingan. Chinor g'ishtli va temir panjaralar bilan o'rab olingan bo'lib, uning janubi-g'arbida qadimiy qabriston bor. Qabristonda ikkita xonaqoh qishlog'ni bezab turibdi. Ko'chkak qishlog'ida ulkan bir tup chinor daraxti bor. Chinor daraxtining balandligi 25 metr, yo'g'onligi 7,7 metr. Har tomonga osilib o'sayotgan shoxlari 14-46 metrga teng. Rivoyat qilishlaricha, Mashrab Vaxshivorga So'fi Olloyor ziyoratiga borayotganida ariq bo'yiga chinor ekib ketgan ekan. So'fi Olloyor (XVII-XVIII) asrning 1-choragida Vaxshivorda yashagan. Shoirning

«Sabot ul-ojizin» asari shu joyda yaratilgan. Demak, yuqoridagi rivoyatga asoslansak, Ko'chkak chinori tahminan 300 yoshda.



Boysun tumani markazida 104 yoshli yana bir ulkan chinor daraxti saqlangan. Chinor daraxti Murtazokulov Nuriddin bobo xonadonida, shaxsan uning qo'li bilan ekilgan. Bu chinor daraxtlari davlat muhofazasiga olinmagan. Chinor daraxtining balandligi 18 metr, yo'g'onligi 4 metr, har tomonga osilib o'sayotgan shoxlari 8-10 metrga teng. Boysunning sobiq hokimi A. Soatmurodovning (1978 - 1985) tashabbusi va sa'y-harakati bilan 1979-yilda tuman markaziy ko'chalarining ikki tomonida 1000 dona chinor daraxti ekilgandi. 1995-1996-yillarda bu chinorlar kesib tashlanib, o'rniga archa daraxti ekildi.



Sayrob chinorlari haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

SUNNAT SHUXRATOV,
Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti talabasi

UZUNDARA

Uzundara - eramizdan avvalgi IV-III asrlarga oid eng qadimiy qal'a bo'lib, uning xarobalari Surxondaryo viloyati hududidan (Darbant yaqinida) Rossiya Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti va O'zbekiston Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan topilgan. Uzundara qal'asi tog'larda joylashgan bo'lib, juda mustahkam va toshlardan mohirona qurilgan mudofaa istehkomidir.



Bu istehkom haqida dastlabki ma'lumot akademik E.V.Rtveladze tomonidan fanga kiritilgan. Ushbu yodgorlikni topishda Darbandlik tarixchi Polvon Shoyimov yordam bergan. Uzundara chegara qal'asi qadimgi Baqtriya dehqonchilik vohalarining shimoliy chegaralarini ko'chmanchilar bosqinlaridan himoya qilishning keng tizimidagi asosiy strategik markaz edi. Uzundara devorini umumiy uzunligi 900 metr, tosh devorning qalinligi 3,5 metr va balandligi qurilgan vaqtida 8 metrni tashkil etgan, bugungi kungacha esa 5 metr balandlikda va ba'zi joylari 2 metr balandlikda qad ko'tarib turibdi.



Qal'aga faqat bir yo'l olib borgan va goya atrofni chuqur jarliklar qoplab olgan. Qal'a devorida 10 ta minora bo'lib, ular bir-biridan 25 metrdan 170 metrgacha uzoqlikda joylashgan. Qal'adan tash-qarida ham baland minoralar bo'lib ulardagi soqchilar butun atrofni kun-u tun kuzatib turishgan. Tog' qal'asi ikkita yerto'laga ega bo'lib, uning tubi dastlab qo'rg'oshin plitalari bilan qoplangan. Qal'aning tashqarisida savdo maydoni bo'lib, u yerda mahalliy aholi garnizon askarlari uchun kerakli buyumlar olib kelishgan. Arxeologlarni aytishicha, bu yerdan topilgan xona qoldiqlarida tag qismi silliqqlanib to'rt burchakli plitkalar hosil qilingan. Plitkalar atrofi chuqur o'yilib ariqchalar hosil qilinib, bu ariqchalar bir-biri bilan bog'langan.

Arxeologlar bu zaxiraga saqlanadigan oziq-ovqat omborlaridan biri bo'lib, muzlatgich vazifasini ham bajargan deya javob beradi. Poldagi bu ariqchalarda doimiy muzdek suv oqib turib, xonani sovutib turgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Baqtriya davlatining shimoliy chegaralarining joylashishini aniqlay olish mumkin bo'ldi.

Ekspeditsiya davomida topilgan asosiy topilmalar orasida Iskandar Zulqarnayn, Antiox I va Diodotdan Gelioklgacha bo'lgan Yunon-Baqtriya podshohligining barcha hukmdorlari tasviri tushirilgan ellinistik davrga oid noyob tangalar bor. Shuningdek, olimlar ko'p sonli kamon o'qlari va o'q uchlarini topdilar, bu esa yirik janglar, xususan, qal'aning sharqiy tomonida o'tganligini tasdiqlaydi va qal'ani yorib o'tish imkoniyatini aniq ko'rsatadi.

Qal'a qariyb 150 yil mavjud bo'lib, mil.av 171-166-yillarda so'nggi yunon-baqtriya podshohlaridan biri hukmronligi davrida saklar va yuejlarning ko'chmanchi qabilalari qo'shinlarining bosqini natijasida vayron bo'lgan.



Uzundara haqida
tayyorlangan videorolikni
tomosha qilish uchun
QR kodni skaner qiling.

SALOHIDDIN SUYUNOV,
Sharq filologiyasi va tarjima-shunoslik
fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

OMONXONA

TURISTLARNI JALB QILUVCHI GO'ZAL MASKANDIR

Mamlakatimizning tabiati, tarixi, an'analari, madaniyati, arxitekturasi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy ravishda kishilarda, jumladan xorijliklarda qiziqish uyg'otadi.

Osmono'par tog'lari, betakror xushmanzara tabiati bilan ham dunyoga tanilayotgan Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Inkobod mahallasida joylashgan omonxona qishlog'i go'zal tabiati, hamda shifobaxsh suvi bilan xorijiy hamda mahalliy mehmonlarni doim o'ziga jalb qilib kelayotgan ana shunday go'zal maskanlardan biridir.

Uzoq yillik tarixga ega omonxona quyuq archazorlar bilan qoplangan. Ushbu manzil geografik muhiti, go'zal manzarasi, bahavoligi bilan inson ruhiyatiga o'zgacha ta'sir etadi. Omonxona buloq suvi tarkibida kremniy kislatasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Mutaxassislarining fikricha, bunday vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa, jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega. Ayniqsa, tananing ichki organlarini yuvishda omonxona buloq suvi foydali va zararsizdir.

Omonxona buloq suvi tarkibi va kishi organizmiga ta'sir etishi jihatidan Markaziy Osiyoda yagonadir. "Omonxona" balneologik davolash maskanida davolashning asosiy negizi ham ana shu sulfidli ma'danli suvni ichish va unda vanna qabul qilish hisoblanadi.



Surunkali gepatit, o't xaltasi yallig'lanishi, surunkali oshqozon yallig'lanishi, oshqozon osti bezining surunkali yallig'lanishi, yo'g'on ichak yallig'lanishi, surunkali osteoxondrozlar, qon bosimi kasalliklarining I-II darajasi, qandli diabet, serrozning boshlanish davri singari xastaliklarni davolash bo'yicha sifatli tibbiy xizmat ko'rsatiladi.

Ayni paytda shifobaxsh buloq suvi, go'zal tabiat manzaralari, muqaddas ziyoratgohlari bilan jahonga tanilgan qishloq tibbiyot, eko va ziyorat turizmi shaydolarini o'z bag'riga chorlamoqda. Shunga mos ravishda dunyoning turli davlatlaridan kelayotgan sayyohlar soni ham yildan-yilga o'sib bormoqda.

Bugungi kunda omonxona sihatgohiga tashrif buyuruvchilar soni keskin ko'payganligi bois mehmonxonalar odamlar bilan gavjum. Bundan tashqari oilaviy mehmon uylariga ham talab katta.

Omonxona qishlog'ini infratuzulmasini yaxshilash, yangi innovasiyalarni olib kirish, mahalliy va xorijlik mehmonlarga sifatli xizmat ko'rsatish qolaversa ishsiz aholi qatlamini bandligini ta'minlanishiga zamin bo'ladi.

Boysun tumanidagi omonxona shifobaxsh suvli maskan yadro hisoblanadigan sanatoriya-kurort va turistik kompleksini rivojlantirish orqali yo'ldosh turistik-rekreasion infratuzilma shakllantirilishiga erishiladi. Bu kabi loyihalarning amalga oshirilishi hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantiradi.

CH.K.XUSANOV

Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti dekani



"Omonxona" davolash maskani haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.





YANGI QO'RG'ON



YANGIQO'RG'ON

Yangiqo'rg'on tumani, nafaqat Namangan viloyati, balki Farg'ona vodiysining eng so'lim go'shalaridan biri. Bu zamin o'zining salqin va serhosil yerlari, olmazor bog'lari, uzumzor ishkomlari, bug'doyzorlari, chorvalari, mashhur sanoat korxonalari, sokin, osuda oromgohlari bilan viloyat, mamlakat xo'jaligida o'zining munosib o'rniga ega.

Lekin, bu yurtning eng katta va tunganmas boyligi, xazinasi uning mehnatkash, mard, tanti, ziyoli, eng muhimi pok niyatli, toza qalbli odamlaridir. Bugun bu yurtning odamlari viloyat, mamlakat davlat boshqaruvi idoralari, nufuzli oliy darjoghlarda, jahonning rivojlangan davlatlarida faoliyat ko'rsatib kelayotganliklariga barchaning havasi kelmoqda.

Uzoq davom etgan mafkuraning qattiq tazyiqiga qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.



Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan bebaho ma'naviy merosni tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa bo'lib qoldi. Tuman tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Eng qadimgi sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik manzilgohlari, bobolardan meros bo'lib qolgan osori-atiqalar, tarixiy, tabiiy, madaniy yodgorliklar, ularning Vatan tarixida tutgan o'rnini aniqlash, o'rganish va avlodlarga yetkazish borasida nufuzli ilmiy tashkilotlar, olimlar, qadimshunoslar muhim tadqiqotlarni olib bormoqdalar.

Ayni paytda, tuman aholisi, keng jamoatchilik, ziyolilar, qolaversa, barcha fuqarolarimiz ma'naviyatimizning asosiy manbalaridan biri bo'lgan ajdodlar merosini o'rganishga o'zlarining beminnat yordamlari bilan hissa qo'shib kelmoqdalar. Mamlakatimizdagi davlat boshqaruvi idoralari, mahalliy hokimliklar, ularning bo'lim boshqarmalari, ilmiy, huquqiy idoralar bunday sa'y-xarakatlarni ayniqsa, o'tmishimizni, tariximizni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqot va izlanishlarini hamisha ma'qullab kelgan va bundan keyin ham barcha zaruriy choralar bilan moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar.

A.I.NAJMIDDINOV,

Yangiqo'rg'on tumani hokimi

NANAY QISHLOG'I TARIXI

Nanay qishlog'i tarixi XII-XIII asrlardan boshlanadi. Qishloq hududidan topilgan qadimiy sopol idishlar, xum va ko'zalar, jang qurollari: singan qilich dastasi, o'q-yoy uchlari, metall sovut qoldiqlari, ko'hna qabr toshlari qishloqning qadim tarixi borligidan guvohlik beradi.

Qadimgi Mesopotamiyaliklar va mamlakatimiz hududlarida yashagan Zardushtiylar unumdorlik ilohini Nanay deb atashgan. Ayni paytda qadimgi So'g'dliklar ham yetishtirilgan mo'l hosilni Nanidat ya'ni Nanay ehsoni sifatida qabul qilganlar.

1365-yildagi Chinoz yaqinidagi "Loy jangi"dan so'ng, aholining bir qismi Chotqol etaklari, Qurama tog'lari (hozirgi Nanay qishlog'i)ga kelib o'rtnashganlar. Namangan uezd boshlig'i, bir necha yil Nanay qishlog'ida yashagan Nalivkin "chorva mollarini boqish uchun Bo'stonliqning Nanay qishlog'idan 10 uylik oila ham ko'chib kelganligini, hamda bu joyni Nanay deb atalganini ta'kidlagan..." (Yu.Qirg'izov, T.Akramov: "Bir o'lkaki", 1996-yil, "Namangan" nashriyoti) Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hozirgi Toshkent viloyatining Nanay, Zarkent qishloqlari aholisi bilan bugungi Namangan viloyatining Nanay, Zarkent qishloqlari aholisi yaqin qon-qarindoshlik munosabatlarida bo'lganlar. Shuningdek, har ikki viloyat qishloqlari Chotqol, Qurama tog' tizmalari orasidan o'tgan tog' so'qmoq yo'llari orqali savdo-sotiq qilish, mol ayriboshlash imkoniga ega bo'lganlar.

“PARADISE”

DAM OLIISH MASKANI

Yangiqo'rg'on tumani Nanay qishlog'ining “Qayroqi” MFY-da joylashgan, qishloqning so'lim go'shalaridan biri “Paradise” dam olish maskani 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev topshirig'i bilan tashkil etilgan va ushbu loyihaning umumiy qiymati 800 mln so'mni tashkil etadi. Ushbu dam olish maskanida 3 ta 2 qavatli barcha shart-sharoitlarga ega kamping hamda turli xil milliy taomlar tayyorlanadigan oshxona mavjud.



Ushbu maskanning o'ziga xosligidan yana biri, maskandan turib siz quyosh chiqishi hamda botishining guvohi bo'lishingiz mumkin. “Paradise” dam olish maskanini yaqin kelajakda kengaytirish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

O'tkir nafas yetishmovchiligi kasalligiga chalingan bemorlar uchun ushbu dam olish maskani juda foydali hisoblanadi, sababi kislorodga boy tog' havosidan nafas olish bu kasallikdan qiynalayotganlar uchun ayni muddaodir.

KOMILJON SUYAROV,

Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti,
siyosati va turizm fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar yetakchisi

“Paradise” dam olish maskani haqidagi videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.



“OQTOM O‘TA” YODGORLIK MAJMUASI



Oqtom qishlog‘ining tarixi bundan 1300 yil avvalgi tarixiy voqealar bilan bog‘liq. Ayni vaqtda qishloq tarixi bilan bog‘liq qator afsona va rivoyatlar hozirga qadar xalq orasida aytib kelinadi. „...Rivoyatlarga ko‘ra, Oqtom qishlog‘ining kelib chiqishi Hazrat Ali bilan bog‘lanadi. Hazrat Ali do‘sti Oqtom Sahoba bilan ovga chiqib bir joyda uxlab qoladi. Oqtom Sahoba oldidan chiqib qolgan ohuni quvib ketayotib, dushman lashkarlariga duch keladi. Makotil boshliq dushmanlar Oqtom Sahobaga Hazrat Alini o‘ldirmoqchi bo‘lib ketayotganliklarini aytadilar. Do‘stini o‘limdan saqlab qolish maqsadida Oqtom Sahoba ularga: „Men Hazrat Aliman“, -deb javob beradi. Dushmanlar tengsiz jangda Oqtom Sahobaning boshini tanasidan judo etganlar. Hazrat Ali uyg‘ongach, do‘stini qidirib uning jasadini topadi.

Dushmanlardan qasd olgach, Hazrat Ali do‘sti Oqtom Sahobani shu yerga dafn etadi. Keyinchalik, qishloq Oqtom Sahoba sharafiga Oqtom deb nomlangan...” (Yu.Qirg‘izov, T.Akramov. „Bir o‘lkaki“ kitobi, 1996-yil. „Namangan“ nashriyoti).

Oqtom qishlog‘i oppoq qorlar bilan qoplangan baland tog‘lar etagida joylashganligi uchun qishloqni Oqtov, Oqtog‘, keyinchalik esa Oqtom deb atashgan. Oqtom qishlog‘ining dastlabki aholisi bu yerlarda chorvachilik, asalarichilik bilan shug‘ullanib, asta-sekin dehqonchilik va bog‘dorchilikni o‘rgana boshlaganlar. Nasldor chorva, ayniqsa, ot va qoramollarni parvarishlashni, yuqori navli meva yetishtirishni juda yaxshi o‘zlashtirganlar. Boshqa hududlar bilan savdo-sotiq munosabatlarini yo‘lga qo‘yganlar.



“Oqtom ota” ziyoratgohi haqidagi videorolikni ko‘rish uchun QR kodni skaner qiling.



“Abdulloh bir urug” ziyoratgohi

Bu ziyoratgoh Sharq yulduzi qishlog'ining Gayiston tepaligi hududida joylashgan. Sharqdan Yorilgan MFY, g'arbdan Kosonsoy tumani bilan chegaradosh bo'lib, uning g'arbiy va shimoliy qismlari adirliklar bilan o'ralgan. Ziyoratgohning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi XIV-XV asrlarga to'g'ri keladi. Arab sahobalaridan bir urug'ining vakillari islom diniga da'vat qilish uchun bu yerga kelganlar.

Rivoyatlarda aytilishicha, kofirlar bilan bo'lgan jangda Abdulloh bir urug'ining jangchilari chekina borib, shu yerdagi adirlik ustiga chiqib, “yoril g'or” deb xitob qilganlar. Shunda ular turgan adirlik poyida yer yorilib, g'or paydo bo'ladi. Abdulloh bir urug' vakillari shu g'orga kirib g'oyib bo'ladilar. Hozirda bu hududdagi adirlik ostidan chiqayotgan buloq atrofida ziyoratgoh mavjud bo'lib, viloyatimizning qo'shni tumanlaridan va viloyatlaridan ko'plab sayyohlar ziyoratga kelib turi-shadi.



ELDOR RAHMATOV,

Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti talabasi

“Diyor” dam olish maskani

“Diyor” dam olish maskani Namanagan viloyatining Nanay qishlog'ida joylashgan dam olish maskani hisoblanadi. U yerga borish uchun Yangiqo'rg'on tuman markazidan chaması 1 soat yo'l bosib o'tiladi. “Diyor” dam olish maskani to'rt tomonidan tog'lar bilan o'ralgan. Uning chap tomoni Qirg'iziston bilan chegaradosh hudud hisoblanadi.

Dam olish maskaniga tashrif buyurgan turistlar to'rt xil tarafdagi turar joylarni ijaraga olishlari mumkin: bir yoki ikki qavatli uylar, kottej yoki kempinglar.



ROBIYA NURMATOVA,

Sharq filologiyasi va
tarjimashunoslik
fakulteti talabasi



Ularning hammasida sharoit bir xil. Faqat xonalarining katta va kichikligi, soni bilangina farqlanadi. Dam olish maskanida umumiy suzish havzasi, futbol maydoni, avto-turargoh, bolalar maydonchasi mavjud. Bundan tashqari, har bir uyning yozgi va qishki oshxonasi bor. Agar turistlar o'zlari taom tayyorlashni xohlamasalar ularga xizmat ko'rsatuvchi maxsus oshxona ham mavjud. “Diyor” dam olish maskani manzarali daraxtlar bilan bezatilgan. Ushbu dam olish maskani hamma faslda xorijiy va mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatadi.



“QORAPOLVON BUVA” ZIYORATGOHI



Ular bu qishloq hududida odamlarga islom dinini targ'ib qilish va islom ahkomlarini o'rgatish uchun harakat qilgan kishilar bo'lgan. Bu odamni katta gavdali va baquvvat bo'lgani uchun Qorapolvon buva deyishgan. Qorapolvon buva qishloqning raisi bo'lib, shu yerdagi odamlarning manzilgohlarini boshqargan, tashqi dushmanlardan himoya qilgan va Ipak yo'lidan kelgan karvonlarni kutib olish va ularni jo'natish bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham Qorapolvon buvaning obro'si katta bo'lgan. Qishloqni tashkil qilgan inson Qorapolvon buva hisoblanganligi uchun, keyinchalik, qishloq aholisi o'z qishloqlarini “Qorapolvon buva” qishlog'i deb atay boshlashgan.

“Qorapolvon buva” ziyoratgohi Namangan viloyati, Yangiyo'rg'on tumani, Qorapolvon qishlog'ida joylashgan. Qorapolvon qishlog'i eramizning 1-2-mingyilliklarida tashkil topgan qishloq hisoblanadi. Bu qishloq atrofi baland dovonlardan va adirlıklardan iborat bo'lganligi uchun odamlarning dastlabki manzilgohlari buloqlarning bo'ylarida va soy qirg'oqlarida joylashgan. Qorapolvon buva asli Arabistondan kelgan islom davatchilaridan biri bo'lgan.




“Qorapolvon ziyoratgohi”dan tayyorlangan videorolikni ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

BOBOI HANDON JOME MASJIDI

Boboi handon jome masjidi - Istiqlol qishlog'i hududidagi Mozor ko'chasining Sharqiy qismida qurilgan jome masjidi. Masjid binosi aholi o'rtasida Boboi Handon nomi bilan mashhur bo'lgan shayh Nuriddin homiyligi va boshchiligida tiklangan. Boboi Handon islom dinini mahalliy aholi o'rtasida targ'ib etish uchun halifalik tomonidan yuborilgan ko'p sonli da'vatchilardan biri bo'lgan. Masjid binosi to'g'ri to'rtburchak shakldagi hovlining g'arb tomoniga qurilgan. Masjid namoz o'qiladigan mehrobli, chorsi xonadan iborat. Asosiy xonaning har ikki tomonidagi yordamchi xonalar maktab vazifasini o'tagan. Har uch xona oldiga umumiy qilib turli tadbir va marosimlarni o'tkazish uchun uzun ayvon solingan. Masjid Sharq me'morchiligining O'rta asrlarga xos an'anaviy uslubida qurilgan. Asosiy xonadagi qirrador, konussimon ustunlar mustahkam tagkursilarga o'rnatilgan. Ustunlar ustidagi guldor, o'yma naqshli yog'och yostiqchalarga uzunasiga asosiy to'sin yotqizilib, uning ustiga ikki tomonlama ko'ndalang to'sinlar terilgan. To'sinlarning ikki tomonidagi uchlari asosiy devorlar ustiga chiqarilgan.

SAIDJON MAXAMADJONOV,
Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti,
siyosati va turizm fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi



ZARKENT QISHLOG' I TARIXI

Zarkent qishlog'ining paydo bo'lish davri tarixiy asarlarda bundan 800-1000 yildan ortiqroq vaqtga bog'lanadi. Qishloq katta savdo karvonlarining yo'lida joylashganligi uchun ham u qadimdan juda obod va boy qishloq bo'lgan. Qishloq markazidagi katta yo'lning ikki tomoni savdo rastalari, do'kon va zargarlik ustaxonalaridan iborat bo'lib, ularda, asosan, zargarlik buyumlari: tilla va kumushdan yasalgan uzuklar, baldoq, zirak, soch va ko'krak tumorlari yasalib, zarchoponlar tikilgan. Zar, dur, tilla va kumush bilan savdo qiluvchi Qo'qonlik, Kosonlik, Namanganlik, Toshkent, Samarqand va Buxorolik savdogarlar bu yerda bir necha kunlab qolib ketishgan. Qishloqda bozor, karvonsaroy, choyxona, oshxona, mehmonxonalar qurilgan. Qishloq Zarxon, Zarga kon, Zarkon, Zarkent nomlari bilan atala boshlagan. Bundan 200, 250 yil muqaddam qishloq Zarkent nomini olgan.

Xitoy manbalarida vodiyni shimolida yashagan va Dovonni bosqinlardan qo'rgan Qang'yuy (Qangha) qabilalari haqida bizgacha ma'lumotlar yetib kelgan. Hududimizni o'rab turgan Tyan-Shan tog'lari nomi ham xitoycha bo'lib, "Tangri bo'ri" ma'nosini beradi. Bu ko'chmanchi turklarning totemi bo'z bo'riga ishoradir.

Farg'ona vodiysi xaritasini chizgan Zahiriddin Bobur Tyan-Shanni Yettikant tog'lari, Tangritog' deya ifodalaydi. O'rta asrlarda, arablar fathi davrida Zarkent zardusht qalmoqlarining O'ng'or hokimligi markazi bo'lgan va atrof hududlardagi tepaliklarda zardusht ibodatxonalari bo'lgan. Mamay qishlog'ida bugun Mug'tepa nomi bilan saqlangan tepalik zardushtlarning ibodatxonasi o'rnidir. Taxminimizcha, O'ng'or hokimligi hududi hozirgi Qizilyozi, Mamay, Zarkent, O'zak, Shilvi va Qirg'iziston hududidagi Safed Bulon, Ustixon qishloqlari o'rniga to'g'ri kelgan va Buyuk turk xoqonligidagi boshqaruv tizimiga, asosan, xoqonlik tarkibida yarim mustaqil beklik bo'lgan.





Ma'rifatparvar shoir bobomiz Shoh Hakim Xolis "Shoh Jarir qissasi" kitobida O'ng'or hokimligi va uning hukmdori Karvonbos haqida ma'lumotlar beradi. She'riy shaklda yozilgan ushbu kitobda tasvirlanishicha, islomni qabul qilgan qavmlarni zardushtlar tazyiqidan himoya qilish uchun O'ng'or podsholigiga payg'ambarimiz hazrati Muhammad s.a.v.ning nabirasi Shoh Jarir yetakchiligidagi xalifalik qo'shini kirib kelgan.

Axsi va Kosondan zafar quchib kelayotgan islom lashkari xabarini eshitib Karvonbos Zarkentdagi qarorgohiga berkinadi. Keyinchalik ayyorlik ishlatib Shoh Jarirni izzat bilan kutib oladi, nomigagina islomni qabul qilib, hatto, qizi bibi Obida (bibi Ubayda)ni payg'ambarimiz nabirasiga xotinlikka beradi. Keyin esa payt poylab 30 ming kishilik qalmoq lashkari bilan yopirilib, sahoba va tobe'inlardan iborat xalifalik lashkarini qirib tashlaydi.

Oradan yillar o'tib ularning farzandi Shoh Fazl shahidlar hurmati uchun ham Zarkentga qaytgan va sarkash bobosi qarshiligini yengib hududda to'la islom muzaffaqiyatini o'rnatgan. Shoh Fazl hududni aziz ziyoratgoh bilgan va keyinchalik o'zi ham shu yerga dafn etilgan. Bugungi Safed Bulondagi shahidlar maqbarasi yonidagi gumbaz maqbarada Shoh Fazl madfundir. Uning qabri ustiga maqbarani Qoraxoniylar turk xoqonlari bino qilganlar. Ma'rifatparvar va tarixchi Hakimxon to'ra Ibrat "Tarixi Farg'ona" asarida mazkur shahidlar manzilgohini tilga olib o'tgan. (R.Mirazimov. "Moziydan so'zlar tilim" maqolasidan).

Zarkent suv ombori. Zarkent suv ombori Poromon va Hazratishoh qishloqlari oralig'ida, Zarkent qishlog'idan 3,5 kilometr g'arbda joylashgan. 1982-yilda qurilgan. Suv omborining sathi 10 gektar. Muhofaza hududi bilan 17 gektar. Suv ombori yiliga 5 million kubmetr suv to'plash quvvatiga ega. Asosiy suv manbasi qor, yomg'ir, sel, jala hamda qisman Podshoota soyi suvlari. Zarkent suv ombori suvlari bilan Poromon, Navro'zobod qishloq fuqarolar yig'inlari hududlaridagi ekinzor, bog'lar sug'oriladi.



"Nishon" loyihasining Zarkent qishlog'i haqidagi sonini ko'rish uchun QR kodni skaner qiling.

MIRSHOD SABITOV,

Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

O'zbek taomlari Markaziy Osiyodagi eng rang-barang ovqatlardan biridir. Asrlar davomida to'plangan osh-pazlik an'analari bugungi kunda yagona va hammamizga tushunarli bo'lgan o'zbek oshxonasining yara-lishiga sababchi bo'lgan. Bu oshxona ham o'z navbatida mintaqalarga qarab bo'linadi. Bugun esa sizlarga Namangan oshxonasi haqida qis-qacha fikrlarimni bayon etmoq-chiman.



Mantisho'rva - bu juda to'yimli va mazali Namangan milliy taomlari-dan biri bo'lib, u o'zining ajoyib ko'rinishi bilan har bir dasturxonga ko'rk beradi. Bu taom haqida eshitganimizda kosa ichidagi mitti mantichalar xayolimizga kelgandi, ammo dasturxonga biroz sho'rvasi bilan tortilgan mantilarni ko'rdik.



Mahalliy aholidan bu yerdagi eng mashhur taom qaysi degan savolimizga, "mastava" deb javob oldik.

Namangan taomlari

O'zbek oshi - bu sharqona taomlar-ni xush ko'ruvchilar va shirin ovqatlarni qadrllovchilar taomidir. Ammo Namangan oshi alohida bir dunyodir. Yurtimizda osh tay-yorlashning 30ga yaqin uslubi bo'lsa kerak. Namangan oshi esa xuddi bu uslublarning barchasini o'zida mu-jassamlashtirganday ko'rinadi. Palov (osh) so'zining kelib chiqishi haqida Ibn Sino nomi bilan bog'liq qadimiy afsona mavjud. Aslida palov so'zi ichiga solinadigan masalliqning bosh harflaridan tuzilgan qis-qartmadir.



Mastava, amaliyotimiz davomida, deyarli har nonushtamizni shu ovqat bilan boshladik. Ayniqsa, uning oldiga qo'shimcha qilinadigan qatiq, suzma va qalampirlar uning mazasini yanada boyitadi desak bo'ladi.

LOBAR TEMIROVA,
Xitoyshunoslik fakulteti talabasi,
Universitet yoshlar kengashi a'zosi

FOTO ESDALIKLAR















TSUOS
TOURISM

ELEKTRON
JURNALI
TAHRIRIYATI
JAMOASI

SHARQSHUNOSLIK UN



**SHAVKAT
ABDUG'AFFOROV**

**SEVARA
BAHODIROVA**

**MUSLIM
ABDUMAJITOV**

**SALOHIDDIN
SUYUNOV**

**KOMILJON
SUYAROV**

TSUOS TOURISM

SHARQSHUNOSLIK YOSHLAR ITTIFOQI



Ushbu elektron jurnal universitet yoshlar kengashi tashabbusi bilan tashkil qilindi.

Yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizda kuzatib boring.



@SHARQSHUNOSLIK_YI



@TSUOS_YU



@sharqshunoslik_ittifoqi